QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Tar.04.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QANAATOV ESIMQAN ELSUYER ULI

XORAZM TSIVILIZATSIYASI KONTEKSTIDA JANUBI-SHARQIY USTYURT YODGORLIKLARI (IX–XIV ASRLAR)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Nukus – 2026 yil

UO‘K: 94(575.171):72"08/13"

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of abstract of the doctor of science (DSc) dissertation

Qanaatov Esimqan Elsuyer uli
Xorazm tsivilizatsiyasi kontekstida Janubi-Sharqiy Ustyurt yodgorliklari (IX–XIV asrlar) 3

Канаатов Есимкан Елсуйер улы
Памятники Юго-восточного Устюрта в контексте Хорезмской цивилизации (IX–XIV вв.) 35

Qanaatov Esimqan Elsuyer uli
The Monuments of Southeastern Ustyurt in the Context of the Khorezmian Civilization …….....71

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ….....76

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Tar.04.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QANAATOV ESIMQAN ELSUYER ULI

XORAZM TSIVILIZATSIYASI KONTEKSTIDA JANUBI-SHARQIY USTYURT YODGORLIKLARI (IX–XIV ASRLAR)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Nukus – 2026 yil

Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.DSc/Tar225 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) hamda «ZiyonET» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Abdullaeva Yaxshibeka Atamuratovna,** tarix fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Masharipov Qudrat Yuldashevich** tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
	Suleymanov Rustam Xamidovich tarix fanlari doktori, professor
	Matyakubov Xamdam Xamidjanovich tarix fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	O'zR FA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Tar.04.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «21» XI soat____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49; e-mail: info@karsu.uz)

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (637 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi,1 uy. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «7» XI kuni tarqatildi.
(2026 yil «7» XI dagi 25 raqamli reyestr bayonnomasi)

M.A.Karlibaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

X.M.Otegenov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.Djumashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: Jahon tarixida tarixiy-madaniy yodgorliklarni o‘rganish va saqlash insoniyatning ma’naviy merosini asrashda ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Yodgorliklar xalqlarning madaniyati, urf-odatlari va dunyoqarashini ifoda etadigan noyob manbalar bo‘lib, ularning chuqur tadqiq etilishi tarixiy haqiqatni tiklash, milliy o‘zlikni anglash va global madaniy muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, yodgorliklarni ilmiy asosda tadqiq etish o‘tmishni anglash bilan birga, zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun ham yuksak qiymatga ega. Bugungi kunda tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish masalasi o‘zining ilmiy, amaliy va dolzarb ahamiyatini to‘la namoyon etmoqda.

Jahon ilm-fanida tarixiy-madaniy yodgorliklarning shakllanish hamda rivojlanish bosqichlarini, ularning insoniyat tsivilizatsiyasiga ko‘rsatgan ta’sirini aniqlash dolzarb yo‘nalishlardan hisoblanadi. Ushbu obyektlarni o‘rganish har bir xalqning o‘tmishdagi ijtimoiy munosabatlari, tafakkur tarzi va madaniy qadriyatlarini anglash imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqotlar orqali milliy merosning umumbashariy madaniyat bilan aloqadorligi hamda global taraqqiyotga qo‘shgan hissasi ochib beriladi. Hozirgi davrda yodgorliklarni ilmiy asosda tahlil qilish o‘tmish va madaniy merosni saqlab qolishning asosiy omilidir.

O‘zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar milliy madaniy merosni muhofaza qilish, tiklash va tizimli tadqiq etish imkonini bermoqda. Bu borada qabul qilingan huquqiy hujjatlar hamda institutsional o‘zgarishlar tarixiy-madaniy yodgorliklarni o‘rganish sur’atini tezlashtirdi. Mamlakatimizdagi obyektlarning jahon madaniyatidagi o‘rnini ko‘rsatuvchi fundamental va amaliy izlanishlar izchil davom ettirilyapti. Konservatsiya va restavratsiya ishlarining zamonaviy metodlar asosida yo‘lga qo‘yilishi yodgorliklarning asl qiyofasini asrashni ta’minlamoqda. Qadimiy shaharlar, me’moriy ansambllar, arxeologik hamda etnografik yodgorliklarni chuqur tahlil qilish orqali ularning global tsivilizatsiyadagi o‘rni aniqlanyapti. Ushbu sa’y-harakatlar O‘zbekiston madaniy merosini xalqaro miqyosda keng targ‘ib qilish bilan birga, yosh mutaxassislar avlodini tayyorlashga zamin yaratadi. Zero, Muhtaram Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, «Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor»[1].

Qoraqalpog‘iston hududidagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni tadqiq etish mintaqa o‘tmishini xolis yoritish imkonini beradi. Ayniqsa, Ustyurt platosining IX–XIV asrlarga oid madaniy va ijtimoiy hayotini o‘rganish alohida diqqatga loyiq. Bu hududda Xorazmshohlar davlati hamda ko‘chmanchi qabilalar madaniyatining o‘zaro ta’siri natijasida o‘ziga xos tsivilizatsiya shakllangan. Platodagi qal’a va qo‘rg‘onlar, karvonsaroylar, xabar berish minoralari, qadamjolar hamda dafn me’morchiligi obyektlari o‘sha davrdagi tarixiy jarayonlarni aks ettiruvchi noyob manbalardir.

[1] Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъатни, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини такомиллаштиришнинг мустаҳкам пойдеворидир / Халқ сўзи, 2017. – №153 (6847).

Ustyurt kengliklaridagi ko‘plab yodgorliklarning ilmiy jihatdan to‘liq tahlil qilinmaganligi sababli, ularning shakllanishi va mintaqa tarixidagi o‘rni fanda hamon to‘liq yoritilmagan. Shunonchi, ushbu obyektlarni kompleks o‘rganish, raqamlashtirish hamda madaniy meros sifatida hujjatlashtirish zarurati mavjud.

Orol va Kaspiy dengizlari oralig‘idagi Ustyurt platosi Turkmaniston, Qozog‘iston va O‘zbekiston respublikalari hududlarida joylashgan. Ustyurtning umumiy maydoni 21,2 mln gektarni tashkil etadi, jumladan O‘zbekistonga tegishli qismi – Janubi-Sharqiy Ustyurt hududi 7,2 mln gektardan iborat.

Ustyurtning Janubi-Sharqiy qismi tarixiy yodgorliklarga boyligi, mazkur hududning IX-XIV asrlarga oid tarixiy-madaniy yodgorliklari tarixini o‘rganish mavzusining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Hududdagi o‘rta asrlardagi yodgorliklar – karvon yo‘llari, xabar berish minoralari, karvonsaroylar, ov qilish uchun qurilgan inshootlar (aranlar), qo‘rg‘onlar va shaharlar va h.k. haqida yaxlit ma’lumot berish, bunda nafaqat yodgorliklarning o‘zini tavsiflash, balki ularning shu atrofda yashagan o‘troq, yarim ko‘chmanchi va ko‘chmanchi xalqlar turmushidagi ahamiyatini belgilash ishning qiymatini yanada oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuni (2001-yil 30-avgust, 269-II-son), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli «O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-sentyabrdagi F-5361-sonli «Alohida ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarni qurish, restavratsiya qilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoyishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-iyuldagi VMQ-200-sonli «Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori va boshqa ko‘plab huquqiy-me’yoriy hujjatlarning qabul qilinishi ham bir tomondan uning dolzarbligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan respublikadagi tarixiy-madaniy meros obyektlarini yanada chuqurroq o‘rganishni talab etadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Dissertasiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik huquqiy jamiyatni ma’naviy-estetik va madaniy rivojlantirish, innovasion faoliyatni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertasiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2]. Mavzuning dolzarbligi kelajak avlod tarbiyasi uchun juda muhim ekanligi dunyo hamjamiyatining ilmiy-tadqiqot institutlarini, ilmiy markazlarini qiziqtirib kelmoqda. Xususan, Ustyurtdagi tarixiy-arxeologik yodgorliklarni o‘rganish ishlari UNESCOning Ipak yo‘li dasturi huzuridagi Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro

[2] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi www.academia.edu, www.researchget.net, www.scholar.google.com, https://unesco-iicas.org, https://iie.kz, https://www.archeo.kz, https://wku.edu.kz, https://www.ivran.ru/, https://iea-ras.ru/, https://www.orientmuseum.ru/, https://geology.am/, https://www.univ-amu.fr/en va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

instituti (IICAS), Ch.Ch. Valixanov nomidagi Tarix va etnologiya instituti, A.X. Marg‘ulan nomidagi Arxeologiya instituti, Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti, Maxambet O‘temisov nomidagi G‘arbiy Qozog‘iston universiteti (Qozog‘iston), Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Etnologiya va antropologiya instituti, Sharq xalqlari san’ati davlat muzeyi (Rossiya Federasiyasi), Armaniston Milliy Fanlar akademiyasi Geologiya fanlari instituti (Armaniston), Lion universiteti, AIX-Marseille universiteti (Fransiya), Sidney universiteti (Avstraliya) kabi ilmiy muassasa va markazlarda olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Janubi-Sharqiy Ustyurt yodgorliklarining IX–XIV asrlardagi geostrategik va tranzit rolini ilk o‘rta asrlarda al-Belazuriy, Ibn Rusta, al-Istahriy kabi arab geograflari Ustyurtning «Guz dashti» maqomi, qabilaviy munosabatlar va Xorazm bilan savdo aloqalarini yoritganlar. Abu Rayhon Beruniy Amudaryo o‘zanlari o‘zgarishi hamda as va alanlarning ko‘chishi sabablarini ekologik omillar bilan bog‘lagan. Gardiziy Xorazm–Volgabo‘yi karvon yo‘lini, Yoqut al-Hamaviy Siyaxkux topografiyasini, Rubruk va Ibn Battuta esa hudud arxitekturasi va logistikasini ta’riflagan. Pegolotti Urganchning xalqaro terminal sifatidagi o‘rni, Jenkinson esa keyingi tsivilizatsion inqirozlarni ko‘rsatgan. Xiva xonligi tarixnavislari asarlarida esa Adaq, Vazir, Tersek kabi shahar-qal’alarning XVII asrgacha bo‘lgan tarixi yakuniy umumlashtirilgan[3].

Mintaqani yangi davrda o‘rganish XV–XIX asrlardagi rus harbiy-ilmiy ekspeditsiyalari bilan bog‘liq. A. Bekovich-Cherkasskiy Qaraumbet minorasi va Alanqal’ani xaritaga tushirgan bo‘lsa, P. Richkov Churuq va Beleuli karvonsaroylarini tavsiflagan. 1825–1826-yillarda F.F. Berg ekspeditsiyasi Ustyurt ichki yo‘llari hamda Duvona, Davletkerey kabi obidalarni fiksatsiya qildi. A. Levshin «Eski No‘g‘ay yo‘li»ni o‘rgandi, P.I. Nebolsin esa yo‘llarning logistik klassifikatsiyasini ishlab chiqdi. 1842-yilda T.F. Baziner sharqiy chinkdagi 12 ta xabar berish minorasini Xorazmshohlar davri muhandislik mahsuli deb baholadi. Asr yakunida N. Petrusevich, S. Nikitin va A. Ryabinin Beleuli arslonlari tasvirini aniqladi, M. Chernishevskiy esa 1899-yilda uning ilk fotosuratini oldi[4].

[3] Абу-л-Аббас Ахмад ибн Йахйа ал-Белазури. Китаб Футух ал-Булдан / Пер. С. Волина. – М.-Л., 1939; Ахмад ал-Йакуби. Книга стран (Китаб ал-булдан) / Пер. Л. Строевой. – М., 1951; Ибн Рустэ. Китаб ал-алак ан-нафиса. – Лейден, 1892; Ал-Истахри. Китаб масалик ал-мамалик. – Лейден, 1927.; Абу Рейхан Беруни. Памятники минувших поколений (Избранные произведения. Том I). – Ташкент: Фан, 1957. – С. 254-260. Гардизи. Зайн ал-ахбар / Изд. В.В. Бартольда. – Сочинения. Т. VIII. – М., 1973; Книга Марко Поло и Гильома де Рубрука путешествия в восточные страны. – М., 1957; Ибн Баттута. Путешествие в Дешт-и Кыпчак / Пер. Н. Ибрагимова. – Ташкент, 1988.; Франческо Бальдуччи Пеголотти. Практика торговли (La Pratica della Mercatura) / Изд. А. Эванс. – Кембридж, 1936; Английские путешественники в Московском государстве (Антони Дженкинсон). – Л., 1937.; Абулгази Бахадур-хан. Родословная туркмен (Шаджара-и таракима). – М.-Л., 1958; Мунис и Огахи. Фирдавс ул-икбал / Изд. Ю. Брегеля. – Лейден, 1988.

[4] Князь Александр Бекович-Черкасский и его экспедиция в Хиву: Сборник документов. – СПб., 1853; Рычков П.И. Топография Оренбургская. – СПб., 1762. – С. 112-115.; Берг Ф.Ф. Экспедиция для обозрения Киргизской степи и пространства между Каспийским и Аральским морями. – Военный журнал, №3, 1827.; Лёвшин А.И. Описание киргиз-казачьих или киргиз-кайсацких орд и степей. – СПб., 1832; Небольсин П.И. Очерки торговли России с странами Средней Азии. – СПб., 1856.; Базинер Т.Ф. Путешествие через Киргизские степи в Хиву. – СПб., 1848. – С. 84-89.; Никитин С.Н. Усть-Уртские и Кунградские пути. – Труды Арало-Каспийской экспедиции. – СПб., 1893; Рябинин А.Н. Геологические исследования вдоль линии гипотетической Среднеазиатской железной дороги через Усть-Урт. – СПб., 1905; Чернышевский М.Н. Дневник путешествия через Усть-Урт в Среднюю Азию. – Тифлис, 1901.

XX asrning birinchi yarmidan e’tiboran Ustyurt va Orolbo‘yi mintaqasi arxeologiyasi professional va muntazam akademik tadqiqotlar bosqichiga qadam qo‘ydi. Bu borada akademik V.V. Bartoldning yozma manbalarga tayanib Adaq va Vazir shaharlari lokalizatsiyasini aniqlash borasidagi izlanishlari dastlabki nazariy poydevor bo‘ldi[5]. 1940-yillardan boshlab S.P. Tolstov boshchiligidagi mashhur Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi (XAEE) mintaqada keng ko‘lamli aerofotosuratga olish va kompleks landshaft yondashuvlarini qo‘llash orqali Ustyurt arxeologiyasida tub burilish yasadi[6]. XAEE tadqiqotlari natijasida Ustyurt faqat geosiyosiy cho‘l emas, balki antik davrdan buyon Xorazm tsivilizatsiyasining shimoliy-g‘arbiy ekspansiyasini ta’minlagan, Devkesken, Shemaxa, Tersek kabi o‘nlab yirik shahar va forpostlarni qamrab olgan strategik tranzit makon ekanligi isbotlandi. Keyingi o‘n yilliklarda Ya.G‘. G‘ulomov, B.V. Andrianov, M.A. Itina, E.E. Nerazik kabi yirik olimlarning izlanishlari Xorazmning tuman chegaralari va uning dasht tsivilizatsiyasi bilan iqtisodiy-madaniy integratsiyasi kontseptsiyasini yanada boyitdi[7]. Ayniqsa, Ustyurt va Orolbo‘yi yodgorliklarini bevosita stasionar qazishmalar va xaritalashtirish ishlarida qoraqalpog‘istonlik arxeolog olimlarning xizmatlari beqiyosdir. V.N. Yagodin Janubi-Sharqiy Ustyurt yodgorliklarini eng ko‘p va tizimli tadqiq etgan arxeolog olimdir. U mintaqadagi o‘rta asrlarga oid «aran»lar – kamon o‘qsimon noyob ov inshootlarining morfologik va xronologik tipologiyasini yaratdi. Olim ko‘chmanchilarning ekologik etikasi va Xorazm tsivilizatsiyasi bilan tranzit-iqtisodiy integratsiyasini fundamental dala tadqiqotlari orqali fanga muhrladi[8]. Yu.P. Manilov Markaziy Ustyurtdagi Beleuli, Churuq, Qo‘shbuloq karvonsaroylarida tizimli qazishmalar o‘tkazib, ularning xalqaro tranzit yo‘llaridagi o‘rnini ko‘rsatgan[9].

Ko‘chmanchi dasht aholisi bilan o‘troq dehqonchilik vohalari o‘rtasidagi munosabatlarni faqat qarama-qarshilik doirasida emas, balki iqtisodiy almashinuv,

[5] Бартольд В.В. К истории орошения Хорезма. – Сочинения. Т. III. – М.: Наука, 1965.

[6] Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948.; Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.-Л.: АН СССР, 1948; Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ, 1962.

[7] Толстов СП., Жданко Т.А., Итина М.А. Работы ХАЭЭ АН СССР в 1958-1961 гг. // МХЭ. Вып. 6. – М., 1963; Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: АН УзССР, 1957; Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – М.: Наука, 1969.; Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981.

[8] Ягодин В.Н. Стреловидные планировки Устюрта (опыт историко-культурной интерпретации). Археология Приаралья. Вып. V. – Ташкент: «Фан», 1991. – 203 с.; Ягодин В.Н., Бижанов Е.Б., Мамбетуллаев М.М., Юсупов Н. Ю. Разведки на Устюрте // АО в 1972. – М, 1973.; Ягодин В.Н. Древние кочевники Арало-Каспия на Великом шелковом пути // Вестник ККОАНРУЗ, 1994, №2. – 99-106.; Ягодин В.Н. Кочевники на северно-западных границах Хорезма. Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизации (тезисы докладов). – Алматы, 1987.; Ягодин В.Н. Средневековые кочевья Арало-Каспийского междуморья // Вестник ККОАНРУЗ, 1991, №3. – с. 77-84.; Ягодин В.Н. Типолого-хронологическая систематизация Средневековой керамики Арало-Каспия // Приаралье на перекрестке культур. – Самарканд-Ташкент: МИЦАИ, 2013. – 196 с.; Ягодин В.Н. Типология средневековых городищ Восточного чинка Устюрта // Вестник ККОАНРУЗ, 1992, №2. – с. 102-108.; Ягодин В.Н. Устюрт и Приаральская дельта. ОНУ, №1. 1976. – с. 45-52.; Ягодин В.Н., Бижанов Е.Б. Археологические работы на Устюрте. – АО 1973 г. М., 1974.; Ягодин В.Н., Китов Е.П., Ягодин В.В. Кочевники позднесарматского времени юго-восточного Устюрта (по материалам могильника Казыбаба-1) // Вестник ККО АН РУз, 2016. № 4. – с. 146-151.

[9] Манылов Ю.П. Археологические исследования караван-сараев Центрального Устюрта // Археология Приаралья. Вып. 1. -Ташкент, 1982. – с. 93-121.

madaniy ta'sir va o‘zaro bog'liqlik nuqtai nazaridan baholash zarurligi R.M. Suleymanovning mehnatlarida ma’lum darajada o‘z ifodasini topgan[10].

Mintaqa moddiy madaniyatini Xorazmshohlar va Oltin O‘rda davrlari ijtimoiy-iqtisodiy, hunarmandchilik hamda savdo-pul munosabatlari kontekstida fundamental o‘rganishda taniqli arxeolog olim M.-Sh. Qidirniyazovning tadqiqotlari mujim ahamiyatga ega. Olim o‘zining ko‘p yillik monografik va dala tadqiqotlarida Janubi-Sharqiy Ustyurt orqali o‘tgan karvon yo‘llari infratuzilmasini voha shahar madaniyati bilan organik aloqada tahlil qildi[11]. Mustaqillik yillarida arxeolog olimlar G‘. Xo‘janiyozov va J. Hakimniyazovlarning Devkesken-Vazir arxitekturasi va numizmatikasiga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlari, Q.Masharipovning Xorazmning transmintaqaviy eksport-import aloqalari borasidagi ishlari, hamda Sh. Amirovning Janubiy Ustyurtda islom dinining tarqalish topografiyasiga oid izlanishlari muammoning konseptual jihatlarini to‘la yoritishga xizmat qildi[12]. Shuningdek, qo‘shni davlatlar tarixshunosligida S.E.Ajigali qalamiga mansub «Ko‘chmanchilar arxitekturasi – Yevrosiyo fenomeni» fundamental asari hamda M. Kalmenovning Ustyurt va Mang‘istov o‘rta asr karvon yo‘llariga oid dissertatsiyasi chegaradosh hududlar moddiy merosini qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi[13]. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi olimlarining Rossiya va Qozog‘iston ilmiy markazlari bilan hamkorlikda 2015–2018-yillarda o‘tkazgan xalqaro ekspeditsiyalari natijasida Ustyurt sharqiy chinkida fanga noma’lum bo‘lgan Gunjeli karvonsaroyi, yangi xabar berish minoralari va erta ko‘chmanchilarga oid qabristonlar majmuasi aniqlandi. X.X. Matyakubovning tadqiqotlarida Xorazm, Janubiy Orolbo‘yi, jumladan, Janubi-Sharqiy Ustyurt hududining qadimgi tarixiy geografiyasi, bronza va ilk temir davri madaniyatlari hamda ilk davlatchilik ildizlari tizimli yoritilgan[14].

Mazkur tadqiqotlarning mavjudligiga qaramasdan, Janubi-Sharqiy Ustyurt hududidagi IX–XIV asrlarga oid xabar berish minoralarining faqatgina mudofaa-strategik vazifasi emas, balki «Xorazm–Jand» transmintaqaviy karvon yo‘llaridagi logistik-navigatsiya tizimi sifatidagi o‘rni, dasht ko‘chmanchilarining xo‘jalik

---

[10] Сулейманов Р. Х. Древний Нахшаб: проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н. э. – VII в. н. э. – Ташкент: Фан, 2000. – 344 с.; Кошеленко Г. А., Буряков Ю. Ф., Сулейманов Р. Х. и др. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии // Археология СССР. – М.: Наука, 1985. – 496 с.; Исамиддинов М. Х., Сулейманов Р. Х. Комплекс ритуально-культовой керамики IV–V вв. из Южного Согда // История материальной культуры Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977. – Вып. 13. – С. 65–72.

[11] Кыдырниязов М.-Ш. Материальная культура городов Хорезма в XIII-XIV вв. – Нукус: Каракалпакстан, 1989; Кдырниязов М.-Ш. Древняя и средневековая культура Южного Приаралья. – Нукус, 2012; Кыдырниязов М.-Ш., Сайпанов Б. Ремесло Хорезма в эпоху золотоордынского владычества. – Нукус, 2015.

[12] Ходжаниязов Г., Хакимниязов Ж. Городище Девкескен (Вазир). – Нукус: Билим, 2001; Машарипов Қ. Хоразмнинг ўрта шарқ ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X-XV асрлар) (монография). – Урганч: УрДУ, 2016.; Амиров Ш. Предпосылки распространения ислама среди кочевников плато Устурт // Ўзбекистон археологияси мустақиллик йилларида: ютуқлар ва истиқболлар. – Самарқанд, 2016. – С. 90–93.

[13] Ажигали С.Е. Архитектура кочевников — феномен истории и культуры Евразии (памятники Арало-Каспийского региона). – Алматы: НИЦ «Ғылым», 2002; Калменов М.Д. Средневековые археологические памятники на караванных путях Устюрта и Мангыстау (X-XIV вв.): Автореф. дисс. ... докт. филос. (PhD). – Казань, 2013.

[14] Матякубов Х. Х. Хоразм воҳаси бронза ва илк темир даври тарихи (маданият, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий муносабатлар муаммолари): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент: ЎзМУ, 2018. – 46 б.

hayotini ifodalovchi «aran» tipidagi ov inshootlarining evolyutsion funksiyalari va tipologik tasnifi, shuningdek, ko‘chmanchilar va Dasht tsivilizatsiyasining voha madaniyati bilan integratsiyasi hamda Oltin O‘rda va Xorazm o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy aloqalarda Ustyurt transchegaraviy hududining konseptual roli yaxlit kompleks tizim sifatida hamon maxsus fundamental tadqiqot obyekti darajasida mukammal o‘rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi Janubi-Sharqiy Ustyurtdagi IX-XIV asrlardagi tarixiy-madaniy yodgorliklarning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi o‘rnini, bajargan vazifasini, tarixini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Janubi-Sharqiy Ustyurt hududining tarixiy-madaniy yodgorliklariga oid yozma, kartografik va arxeologik manbalar tasnifini yaratish; Janubi-Sharqiy Ustyurtdagi o‘rta asrlar yodgorliklarining shakllanishi, paydo bo‘lishi va tarixiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

IX–XIV asrlardagi turli toifadagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni (qal’a-qo‘rg‘onlar, karvonsaroylar, xabar berish minoralari) tizimlashtirish hamda hududiy manzilgohlar madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

Zanjirsimon joylashgan xabar berish minoralari tizimining xalqaro karvon yo‘llari infratuzilmasidagi logistik, navigatsiya va xavfsizlik funksiyalarini tahlil qilish;

Ustyurt platosidagi «aran» tipidagi kamon o‘qsimon noyob ov-xo‘jalik inshootlarining makoniy va funksional xususiyatlarini aniqlash orqali dasht ko‘chmanchilarining voha shaharlari bilan iqtisodiy-savdo integratsiyasi dinamikasini hamda mintaqaviy ixtisoslashuvini ochib berish;

IX–XIV asrlarda Ustyurt transchegaraviy hududining Xorazmshohlar va Oltin O‘rda davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy hamkorlik hamda «Xorazm–Jand» tranzit aloqalarini ta’minlashdagi geosiyosiy va tsivilizatsiyaviy rolini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida IX-XIV asrlarga oid Ustyurtning Janubi-Sharqiy qismida karvon yo‘llari bo‘ylab joylashgan xabar berish minoralari, karvonsaroylar, qo‘rg‘onlar, qal’alar, ko‘chmanchilarga oid ov-xo‘jalik inshootlari belgilangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Ustyurt bo‘ylab o‘tgan sayyohlar, elchilar, harbiy va ilmiy ekspeditsiyalar, savdogarlarning yozma manbalaridagi ular haqidagi ma’lumotlar o‘rin oladi. Ish jarayonida mahalliy va xorijiy arxeolog, etnolog, tarixchi olimlarning ishlari, O‘zbekiston tarixi, Orol-Kaspiy mintaqasi tarixi bo‘yicha o‘rganilayotgan tadqiqot ishlari, dissertasiyalar avtoreferatlari, ilmiy maqolalar tadqiqot predmetidan o‘rin oladi.

Tadqiqotning metodlari. Metodologiyaning asosini tarixiy jarayonlarni o‘rganishga dialektik, xronologik yondashuv tashkil etgan bo‘lib, u tarixiylik, tizimlilik va xolislik tamoyillariga asoslanadi. Xususan, tarixiylik tamoyili faktlar, hodisalar va voqealarni muayyan tarixiy sharoitga muvofiq, ularning o‘zaro aloqadorligini o‘rganishni taqozo etadi. Materiallarni tizimlashtirish va tahlil qilish uchun manbalarni qiyosiy-tarixiy tahlil qilish usulidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ustyurtning o‘rta asrlarda Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo, Xorazm va Kavkaz o‘rtasidagi savdo va madaniy almashinuv yo‘nalishlaridagi strategik o‘rni tahlil qilinib, uning O‘rta Osiyo-Xorazm-Kaspiy-Xazar savdo yo‘lidagi tranzit funksiyasi hamda Xorazmni Yangikent bilan bog‘lovchi «Jand yo‘li» nomli uchinchi yirik karvon yo‘lining topografik joylashuvi va strategik ahamiyati aniqlandi.

Xabar berish minoralarining asosiy vazifasi faqat mudofaa emas, balki Xorazm-Jand yo‘lidagi karvonlar uchun xavfsizlikni ta’minlovchi logistik navigatsiya tizimi ekanligi isbotlandi.

Xorazm davlatining Ustyurtda uzluksiz karvon yo‘llarini ta’minlash uchun katta muhandislik salohiyatini safarbar etgani va bu jarayonga mahalliy ko‘chmanchi qabilalar ham jalb etilgani, bunga ular yashagan hududlardan topilgan dafn marosimlari, tamg‘alar kabi moddiy dalillar asos bo‘lib, savdo inshootlari aynan mazkur hamkorlik negizida barpo etilgani ilmiy jihatdan oydinlashtirildi.

Ov inshootlari – aranlarning aynan kamon o‘qsimon (strelovidnaya) emas, balki bog‘lama shaklidagi morfologik tipologiyasi, shuningdek ularning iqtisodiy va semiotik ahamiyati, ya’ni ov vositasi sifatidagi o‘rnidan tashqari o‘troq, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchilarning ekologik etikasi va tabiat bilan uyg‘unligini ifodalovchi ma’nosi ochib berildi va isbotlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Janubi-Sharqiy Ustyurtdagi IX-XIV asrlarga oid tarixiy-madaniy yodgorliklarning hujjatlashtirilgan va tizimlashtirilgan ma’lumotlari arxeologiya, tarix va madaniy merosni muhofaza qilish sohalarida qo‘llaniladi;

Yodgorliklar bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar, urf-odatlar va xalq og‘zaki ijodi materiallarining o‘rganilishi madaniy turizm va etnoturizmni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

Tadqiqot natijalari o‘quv jarayonlarida, xususan, tarix va madaniyat sohalariga oid kurslar va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan ilmiy metodologiyaning zamonaviy talablarga mosligi va asosiy manbalar hamda adabiyotlarning keng qamrovli tahlili asosida olingan natijalarning ishonchliligi ta’minlandi. O‘rganilgan tarixiy-arxeologik materiallar, xususan, yodgorliklarning hujjatlashtirilgan ma’lumotlari va ularga oid arxeologik tadqiqotlar natijalari ilmiy xulosalarni asoslashda ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotdagi tahlil va xulosalarni mahalliy va xorijiy tadqiqotlar bilan qiyosiy o‘rganish natijalari ularning xolis va dalillarga asoslanganligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda Ustyurtning IX-XIV asrlar tarixi va madaniy merosini chuqurroq anglashga xizmat qilishi hamda tarix, arxeologiya va etnografiya sohasidagi ilmiy yo‘nalishlar uchun yangi manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertasiyada taklif etilgan bir qator qoida va ishlanmalardan Orol-Kaspiy mintaqasining o‘rta asrlar

tarixi bo‘yicha umumlashtiruvchi ilmiy ishlar yaratishda, oliy o‘quv yurtlarining tarix fakultetlari talabalari uchun maxsus kurslar tayyorlashda, ilmiy-ommabop nashrlar va muzey ishlarida, shuningdek, arxeologik yodgorliklarni restavratsiya qilish va muzeylashtirish hamda turistik marshrutlarni yaratish bo‘yicha loyihalarni ishlab chiqishda ham foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. IX-XIV asrlarda Janubi-Sharqiy Ustyurtdagi tarixiy-madaniy yodgorliklar tarixiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Ustyurtdagi tarixiy obidalar, asosan memorial me’morchilik namunalari (maqbara, sag‘ana, to‘rtquloq va h.) XIV asrdagi Xorazm g‘ishtli arxitekturasining texnologik transferi natijasi ekanligi va bu Ustyurtdagi maqbaralarda o‘xshashligida ko‘rinishi oydinlashtirilganligiga oid natijalardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022-2024-yillarga mo‘ljallangan ish rejasining bir qator bandlarining bajarilishini ta’minlashda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 7-oktyabrdagi 7-03/2122-sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan ma’naviyat darslarida, yoshlarni vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari ruhida tarbiyalashda amaliy yordam bergan.

Ustyurtning o‘rta asrlarda Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo, Xorazm va Kavkaz o‘rtasidagi savdo va madaniy almashinuv yo‘nalishlaridagi strategik o‘rni tahlil qilinib, uning ilgari ayni darajada baholanmagan O‘rta Osiyo-Xorazm-Kaspiy-Xazar savdo yo‘lidagi tranzit funksiyasi hamda Xorazmni Yangikent (Jankent) bilan bog‘lovchi «Jand yo‘li» nomli uchinchi yirik karvon yo‘lining topografik joylashuvi va strategik ahamiyati aniqlanganligiga oid natijalardan Qoraqalpog‘iston teleradiokanalining «Assolomu alaykum, Qoraqalpog‘iston» ko‘rsatuvi, «Talab va mas’uliyat», «Kunning mavzusi», «Sayohat va turizm» eshittiruvliri ssenariyini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston teleradiokompaniyasining 2024-yil 7-oktyabrdagi 05-22/439-sonli ma’lumotnomasi).

Xabar berish minoralarining asosiy vazifasi faqat mudofaa emas, balki Xorazm-Jand yo‘lidagi karvonlar uchun xavfsizlikni ta’minlovchi logistik navigatsiya tizimi ekanligi isbotlanganligiga oid natijalardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida ekoturizmni rivojlantirish va tabiiy hududlarni muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilgan 2022-yilgi loyihada foydalanildi. (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 18-oktyabrdagi 01/18-3425-sonli ma’lumotnomasi). Natijada Sudochye-Aqpetki buyurtma qo‘riqxonasida (tarixiy Urga qishlog‘ida) tarixiy yodgorliklar haqidagi ma’lumotlar plansheti o‘rnatildi

Dissertant Orolbo‘yi staroverlari va Qoraqalpog‘istondagi zardushtiylik madaniyatining izlari haqidagi ilmiy-tadqiqotlari bilan Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazining «Orolbo‘yi diniy va dinlararo bag‘rikenglik» loyihasida ishtirok etdi. Uning tadqiqotlari ushbu markazning ilmiy ishlariga kiritilib, «O‘zbekiston matbuoti» jurnalida «Qoraqalpog‘istondagi o‘rolliklar: ular qanday

qilib o‘zligini saqlab qolgan?» nomli maqolasi chop etildi (Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazining 2024-yil 24-iyundagi 241-24-sonli ma’lumotnomasi). Dissertant ushbu loyihada kichik grant g‘olibi bo‘ldi.

Xorazm davlatining Ustyurtda uzluksiz karvon yo‘llarini ta’minlash uchun katta muhandislik salohiyatini safarbar etgani va bu jarayonga mahalliy ko‘chmanchi qabilalar ham jalb etilgani, bunga ular yashagan hududlardan topilgan dafn marosimlari, tamg‘alar kabi moddiy dalillar asos bo‘lib, savdo inshootlari aynan mazkur hamkorlik negizida barpo etilgani ilmiy jihatdan oydinlashtirilganiga oid natijalardan Islom tsivilizatsiyasi markazi tomonidan amalga oshirilgan «O‘zbek xonliklari davri» yo‘nalishidagi ilmiy-amaliy loyihada «Tamaddunlar kesishgan makon» loyihasini bajarishda foydalanildi (Islom tsivilizatsiyasi markazining 2025-yil 20-noyabrdagi 05-14/588-sonli ma’lumotnomasi). Dissertant ushbu loyihada grant g‘olibi bo‘ldi. Dissertantning mazkur loyiha doirasida amalga oshirgan ilmiy tadqiqoti (monografiyasi) Islom tsivilizatsiyasi markazining «O‘zbek xonliklari davri» ekspozisiyasi tarkibiga kiritildi.

Tadqiqot ishlarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy konferensiya va seminarlarda, jumladan 3 ta xalqaro konferensiyada aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot ishlarining e’lon qilinishi. Dissertasiya ishi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola, shundan 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, to‘rt bob, xulosa, takliflar, foydalanilgan adabiyotlar, illyustrasiyalar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 227 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «Kirish» qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslanib, ishning maqsadi va vazifalari, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **«Ustyurtdagi tarixiy-madaniy yodgorliklarning manbashunosligi va tarixshunosligi»** deb nomlanib, unda Ustyurtdagi tarixiy-madaniy yodgorliklarning manbashunoslik asoslari, tarixshunosligi va geosivilizatsion o‘rni tahlil qilinadi. Bobning ilk fasli *“Ustyurt platosining geosivilizatsion maqomi: o‘troq va ko‘chmanchi madaniyatlar chorrahasi”* deb ataladi.

Ustyurt platosi IX–XIV asrlarda Xorazm vohasi bilan Yevrosiyo dashtlari oralig‘idagi muhim geosivilizatsion makon bo‘lib, o‘troq dehqonchilik madaniyati

va ko‘chmanchi chorvador jamiyatlar manfaatlari aynan shu hududda tutashgan. Tarixshunoslikda Ustyurt endi faqat tabiiy-geografik hudud sifatida emas, balki Xorazm, Orolbo‘yi, Mang‘ishloq, Dashti Qipchoq va Kaspiybo‘yi o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy aloqalarni bog‘lagan tranzit makon sifatida baholanmoqda. Katta Aybuyirqal’adan topilgan qadimgi Xorazm yozuvi, shuningdek Devkesken, Shemaxaqal’a, Tersek singari yodgorliklar Ustyurtning qadimdan Xorazm tarixiy-madaniy hududi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Mazkur hududning tarixiy ahamiyati, avvalo, uning voha va dasht o‘rtasidagi vositachilik vazifasi bilan belgilanadi. Ustyurt orqali Xorazm savdo yo‘llari Quyi Volga, Bulg‘or, Saroy, Kavkaz va Kaspiybo‘yi tomon chiqqan, shimoldan esa chorvador qabilalar shu yo‘l bilan Markaziy Osiyo vohalariga kirib kelgan. Shu bois Ustyurt karvon yo‘llari, karvonsaroylar, quduqlar, signal minoralari, qal’alar va qo‘noqgohlar tizimi bilan Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmoqlarida strategik o‘rin egallagan. Bu yo‘llar orqali nafaqat tovarlar, balki ilmiy bilimlar, diniy qarashlar, yozma an’analar va texnologiyalar ham tarqalgan.

Ustyurtning geosivilizatsion mohiyatini tushunishda dasht tsivilizatsiyasi konsepsiyasi muhimdir. Yozma va arxeologik manbalar IX–XIV asrlarda bu yerda bajanak, o‘g‘uz, qipchoq, qang‘li va boshqa turkiy qabilalar yashaganini ko‘rsatadi. Ular uchun Ustyurt doimiy shahar makoni emas, balki mavsumiy ko‘chish, yaylov, ovchilik va savdo aloqalari uchun qulay hudud bo‘lgan. Shu sababli bu yerda shahar-qal’alar bilan bir qatorda aranlar, obalar, qabristonlar, quduqlar va vaqtinchalik qo‘noqgohlar ham keng tarqalgan. Bu yodgorliklar ko‘chmanchi turmush tarzi bilan voha madaniyatining o‘zaro ta’sirini aks ettiradi.

Xorazmning IX–XII asrlardagi iqtisodiy va madaniy yuksalishi, xususan Ma’mun akademiyasi faoliyati, Ustyurtga ham ta’sir ko‘rsatgan. Ko‘hna Urganchga yaqin joylashgan Vazir, Shemaxa va Tersek singari markazlar savdo, harbiy nazorat va madaniy almashinuvda muhim rol o‘ynagan. Beruniy ma’lumotlari esa Amudaryoning qadimgi o‘zanlari, Sariqamish va Uzboy yo‘nalishlari orqali Ustyurtning Xorazm bilan gidrografik va tarixiy jihatdan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Demak, Ustyurt IX–XIV asrlarda o‘troq va ko‘chmanchi tsivilizatsiyalar kesishgan, savdo-kommunikatsiya, etnomadaniy integratsiya va tarixiy yodgorliklar shakllanishi bir makonda uyg‘unlashgan hudud bo‘lgan.

Mazkur bobning ikkinchi fasli *“Ustyurtdagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni o‘rganishning manbashunosligi”*ga bag‘ishlangan. Ustyurt tarixiy-madaniy yodgorliklarini o‘rganishda arab va fors tillaridagi geografik hamda tarixiy manbalar bosh asosiy manba guruhini tashkil etadi. IX–X asr mualliflari al-Balazuriy va al-Ya’qubiy asarlarida Ustyurt hududida yashagan turkiy qabilalar, ularning ijtimoiy tuzilishi hamda Xorazm bilan aloqalari haqida dastlabki ma’lumotlar beriladi[15]. Ayniqsa, al-Ya’qubiy Ustyurt yaylovlari va chinklarida

[15] Ал-Белазури. Извлечение из Китаб Футух ал-Булдан. Пер. С.Волина // МИТТ. Т.1. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. Под редакцией С.П.Волина, А.А.Ромаскевича и А.Ю.Якубовского. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1939. - С. 78.; Ал-Якуби. Извлечение из Китаб ал-Булдан. Пер. С.Волина // МИТТ. Т.l. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. Под редакцией С.П.Волина, А.А.Ромаскевича и А.Ю.Якубовского. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1939. - С. 148-149.

yashagan qabilalarning ko‘chmanchi turmushi, harbiy qudrati va hududiy joylashuvi haqida muhim qaydlar qoldirgan. Ibn Rusta esa Xorazm atrofidagi markazlar va Ustyurt orqali o‘tgan yo‘llar bo‘yidagi aholi punktlarini tasvirlab, hududning toponimikasi va shaharsozlik tarixini tiklashga xizmat qiladi[16].

Istaxriy, Ibn Havqal va al-Maqdisiy asarlarida Ustyurt ko‘pincha Xorazmni Dashti Qipchoq, Xazar va Volga bo‘yi bilan bog‘lovchi strategik makon sifatida talqin qilinadi. Ular qal’alar, qo‘rg‘onlar, quduqlar va bekatlarni tilga olib, Ustyurtda faqat ko‘chmanchi chorvachilik emas, balki o‘troq hayot unsurlari ham bo‘lganini ko‘rsatadi[17]. Noma’lum muallifning “Hudud al-olam” asari esa o‘g‘uzlar yashagan hududlar, ularning turmush tarzi va etnik muhitini tavsiflab, Ustyurtning o‘g‘uzlar tarixidagi o‘rnini aniqlashga yordam beradi.

Ibn Fadlanning 921–922 yillardagi safarnomasi Ustyurtni lokalizatsiya qilishda eng ishonchli manbalardan biridir. U “G‘uzlar cho‘li” orqali o‘tib, hududning tabiiy sharoiti, suv ta’minoti va, ayniqsa, o‘g‘uzlarning dafn marosimlarini batafsil tasvirlaydi. Qabr ustiga qurilgan oba va boshqa dafn inshootlari haqidagi ma’lumotlar bugungi arxeologik topilmalarni sharhlashda katta ahamiyatga ega[18]. Abu Rayhon Beruniy, Gardiziy va Yoqut al-Hamaviy singari mualliflar esa Ustyurtning etnik tarkibi, qabila migratsiyalari, karvon yo‘llari va masofalarini qayd etib, hududni Xorazm vohasining shimoliy darvozasi sifatida ko‘rsatadilar.

XIII–XVI asr manbalari Ustyurtning xalqaro tranzit va siyosiy makon sifatidagi ahamiyatini yanada aniqroq yoritadi. Plano Karpini va Ibn Battuta karvon yo‘llari, suvsiz cho‘l bekatlari, tashlandiq shaharlar hamda yuk tashish tizimini tasvirlab, mintaqaning Oltin O‘rda va Xorazm o‘rtasidagi aloqalardagi rolini ko‘rsatadi. Pegolotti Ustyurt karvon yo‘llarining savdo ahamiyatini iqtisodiy jihatdan baholagan bo‘lsa, Mirxond, Entoni Jenkinson, Abulg‘oziy Bahodirxon va Munis-Ogahiy asarlari Ustyurt shahar va qal’alarining inqirozi, suv tanqisligi hamda qabilalararo kurashlar bilan bog‘liq kech o‘rta asr tarixini yoritadi[19]. Shu

---

[16] Ал-Якуби. Извлечение из Китаб ал-Булдан. Пер. С.Волина // МИТТ. Т.l. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. Под редакцией С.П.Волина, А.А.Ромаскевича и А.Ю.Якубовского. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1939. - С. 148-149.; Ибн Русте. Извлечение из Китаб ал-алак ан-нафиса. Пер. С.Волина // МИТТ. Т.1. VII—XV вв. Арабские и персидские источники. Под редакцией С.П.Волина, А.А.Ромаскевича и А.Ю.Якубовского. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1939. - С. 150.

[17] Ибн-Хаукал Извлечение из Китаб ал-месалик ва-л-мемалика // МИТТ. Т.l. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. Под редакцией С.П.Волина, А.А.Ромаскевича и А.Ю.Якубовского. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1939. - С. 181-184.

[18] Ковалевский А.П. Книга Ахмеда Ибн Фадлана о его путешествии на Волгу в 921-922 гг. Статьи, переводы, комментарии. - Харьков, 1956. - С. 128.

[19] Джиованни дель Плано Карпини. История монголов. Гильом де Рубрук. Путешествия в восточные страны / Под ред. Н.П. Шастиной. М.: Наука, 1957. – с. 102.; Извлечение из «Путешествия» Ибн Баттуты, по изданию Voyges d, ibn Batoutah, trxtr arabe, accompagne par C.Defremery et B.R.Samguinetti. T. 1-4. Paris, 1853-1858, 1874-1879. Перевод Н.Ибрагимова. – с. 68 (213).; Мирхонд. Извлечение из 4 тома Раузат ас сафа по Лакновскому изданию 1891 г. и Тегеранскому 1270 г. Пер. А.А.Ромаскевича // МИТТ. Т. 1. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. Под редакцией С.П.Волина, А.А.Ромаскевича и А.Ю.Якубовского. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1939.-С. 538.; Абуль-Гази. Родословное древо тюрков. Перевод и предисловие Г.С. Саблукова. – Казань: Типо-литография университета, 1906. – с. 174. ; Махмуд Ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География). – Ташкент: «Фан», 1977.

bois yozma manbalar Ustyurtdagi tarixiy-madaniy yodgorliklarning paydo bo‘lishi, rivoji va tanazzulini tiklashda asosiy manbashunoslik poydevori hisoblanadi.

Mazkur bobning uchinchi fasli *“Ustyurt tarixiy-madaniy yodgorliklarining o‘rganilish tarixi va tarixshunosligi”* xususida. Ustyurt haqidagi ilk ma’lumotlar sayohatchilar va rus sharqshunoslik maktabi vakillari (V.V. Bartol’d va b.) tomonidan ilgari surilgan. Bu davrda yodgorliklar epizodik tarzda tasvirlangan bo‘lib, asosan topografik qaydlar va lokalizatsiya masalalari ustuvorlik qilgan.

1928–1930 yillarda L.S. Sokolov tomonidan Devkesken va Shirvonqal’a yodgorliklari ilk bor ko‘zdan kechirildi[20]. Urushdan oldingi davrda A.Yu. Yakubovskiy Xorazmning Ustyurt orqali Sharqiy Yevropa (Xazarlar va Bulg‘or davlatlari) bilan olib borgan tranzit savdo aloqalarini, xorazmlik savdogarlarning Itil va Bulg‘or shaharlaridagi iqtisodiy-ma’muriy rolini yozma manbalar asosida chuqur tahlil qilib berdi[21].

Ustyurtni Xorazm tsivilizatsiyasining uzviy qismi sifatida o‘rganish akademik S.P. Tolstov nomi bilan bog‘liq. Ekspeditsiya tomonidan ilk bor havodan suratga olish (aeros’yomka) metodi qo‘llanilib, «aran»lar (ov to‘siqlari), Devkesken (Vazir), Beleuli karvonsaroyi kabi strategik obyektlar aniqlandi.

M.E. Masson, N.N. Vakturskaya va Yu.P. Manilovlar Ustyurt orqali o‘tgan karvon yo‘llari, xabar berish minoralari va karvonsaroylar (Uchquduq, Ajigeldi, Qo‘shbuloq) infratuzilmasini tadqiq etdilar[22].

M.M. Mendiqulov Ustyurtdagi diniy-memorial inshootlarni (Cho‘pon ota, Seysen ota), G.A. Pugachyonkova esa Devkeskendagi maqbaralarning me’moriy davriylashtirilishini (XV–XVI asrlar) ishlab chiqdi.

V.N. Yagodin rahbarligidagi tadqiqotlar Orol-Kaspiy mintaqasi ko‘chmanchi xalqlarining madaniy merosi va «aran»larning tipologiyasini ochib berdi[23]. E. Bijanov tomonidan tosh davri va o‘rta asr manzilgohlari o‘rganildi[24]. M. Mambetullaev va boshqa olimlar Katta Oybo‘yirqal’ada qazishmalar o‘tkazib, yodgorlikning siyosiy va iqtisodiy mavqeini yoritishdi[25]. S.V. Viktorov esa hududning tabiiy resurslari va antropologik o‘zgarishlarini kompleks tahlil qilish zarurligini ilmiy asoslab berdi[26].

1970–1991 yillar davomida Ustyurt hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar mintaqa tarixini o‘rganishda muhim bosqich bo‘ldi. O‘zFA

---

[20] Ершов С.А. Археология ТССР за 20 лет //Известия Туркм. ФАН СССР. -№2-3. - Ашхабад, 1944.-С. 29.

[21] Якубовский А.Ю. Феодальное общество Средней Азии и его торговли с Восточной Европой в X-XV вв. МИУТТ, ч. I. – Л., 1932. – с. 15.

[22] Массон М.Е. Средневековые торговые пути из Мерва в Хорезм и Мавераннахр. – ТЮТАКЭ. Т. XIII. – Ашхабад, 1966. – с. 279.; Вактурская Н.Н., Воробьева М.Г. Хроника Хорезмской экспедиции АН СССР // ТХАЭЭ. Т. 1.-М., 1952.-С 623.; Вахтурская Н.Н. О раскопках 1948 г. на средневековом городище Шемахакала. ТХАЭЭ, т. 1, М., 1952, с. 173-192.; Манылов Ю.П. Археологические исследования караван-сараев Центрального Устюрта // Археология Приаралья. Вып. 1. -Ташкент, 1982

[23] Ягодин В.Н. Стреловидные планировки Устюрта (опыт историко-культурной интерпретации) // Археология Приаралья. Вып. V. Ташкент: Фан, 1991.

[24] Бижанов Е.Б. Археологические памятники Юго-Восточного Устюрта: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. - Нукус, 1967.

[25] Материалы к своду памятников истории и культуры каракалпакской АССР. Вып. I. – Нукус: Каракалпакстан, 1985. – с. 45-46.

[26] Викторов С.В. Пустыня Устюрт и вопросы ее освоения. – М.: Наука, 1971. – с. 28-29, 42, 60, 120.

Qoraqalpog‘iston bo‘limi mutaxassislari Borsakelmas sho‘r ko‘lidan to Sam qumlarigacha bo‘lgan 300 kilometrlik masofada savdo yo‘llari infratuzilmasini kompleks tadqiq etdilar. Natijada Uchquduq, Beleuli, Churuq kabi karvonsaroylar hamda Shemaxaqal’a va Davletkerey kabi strategik qal’alarning tizimli joylashuvi aniqlandi. Bir-biridan 25–50 km masofada barpo etilgan ushbu inshootlar, quduq va sardobalar mintaqada yuqori darajadagi logistika tarmog‘i mavjud bo‘lganini isbotlaydi.

Shu bilan bir qatorda, V.N. Yagodin rahbarligidagi ekspeditsiya paleolit davridan o‘rta asrlargacha bo‘lgan yodgorliklarni tasnifladi. Tadqiqotlar Janubiy Orolbo‘yi ko‘chmanchi xalqlarining madaniy merosi, ularning dehqonchilik tsivilizatsiyasi bilan munosabatlari hamda etnogenez jarayonlarini yangi ilmiy yondashuvlar asosida yoritish imkonini berdi. To‘plangan materiallar Ustyurtning Buyuk Ipak yo‘li tizimidagi geostrategik ahamiyatini va O‘rta Osiyo tsivilizatsiyasi tarixidagi o‘rnini chuqurroq anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi[27].

Mustaqillik yillarida Ustyurt tarixiy-madaniy yodgorliklarini o‘rganish sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda olimlar mafkuraviy cheklovlardan xoli ravishda, tarixiy haqiqatni tiklash va ilgari boshlangan izlanishlarni fundamental davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri Devkesken-Vazir yodgorligi bilan bog‘liq. Arxeologlar G‘. Xo‘janiyozov va J. Hakimniyozovlarning «Devkesken (Vazir) qal’a» asarida shaharning antik davrdan so‘nggi o‘rta asrlargacha bo‘lgan arxitekturasi, ijtimoiy-madaniy inshootlari (masjid, maqbaralar) va bog‘-park madaniyati tahlil qilingan[28]. P.N. Petrovning numizmatik tadqiqotlari esa XIII asrda Xorazm, Qrim va Bulg‘or o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni tangalardagi tamg‘alar asosida yoritib berdi[29].

Mintaqa tarixini xalqaro miqyosda tahlil qilishda S.E. Ajigaliyning «Ko‘chmanchilar arxitekturasi – Yevroosiyo tarixi va madaniyati fenomeni» asari[30] Ustyurtdagi ko‘chmanchilar madaniyatidagi dafn-marosimga oid qurilmalarning shakl va vazifa jihatidan xilma-xilligini etnos dunyoqarashi bilan bog‘liq holda ochib berdi. Muallifning kitob-al’bomlarida 900 dan ortiq obyektning xaritaga tushirilishi Ustyurtning naqadar boy madaniy landshaftga ega ekanligini isbotlaydi. Shuningdek, M. Kalmenov[31] va M.Sh. Qidirniyazovlarning tadqiqotlari[32] platoning Oltin O‘rda davridagi jahon savdo tizimidagi strategik rolini asoslab, uni «tranzit hudud» sifatida ko‘rsatgan.

---

[27] Материалы к своду памятников истории и культуры каракалпакской АССР. Вып. I. – Нукус: Каракалпакстан, 1985. – с. 45-46.; Викторов С.В. Пустыня Устюрт и вопросы ее освоения. – М.: Наука, 1971. – с. 28-29, 42, 60, 120.

[28] Хожаниязов Г. Хакимниязов Ж. Городище Дэвкескен-Вазир. – Нукус: «Билим», 1997. – 76 с.

[29] Петров П.Н. Клад из Дев-кескен-кала и вопросы начала чеканки серебряных монет в Джучидском улусе // Золотоордынская цивилизация. Вып. 3. – Казань, 2010. - с. 121-149

[30] Ажигали С.Е. Архитектура кочевников – феномен истории и культуры Евразии (памятники Арало-Каспийского региона). – Алматы: «Ғылым», 2002.

[31] Калменов М.Д. Археологические памятники Устюрта и Мангистау на средневековых караванных путях (X-XIV вв.). Дисс… канд. ист. наук, 2013. – 275 с.

[32] Кдырниязов М.Ш. Материальная культура городов Хорезма в XIII-XIV веках. – Нукус: «Каракалпакстан», 1989; О роли Хорезма в евроазиатской торговле XIII-XV веков. - ОНУ, 2000, №1, с. 35-41; Кдырниязов

So‘nggi yillarda Sharqiy Ustyurt ekspeditsiyalari natijasida ilgari fanga noma’lum bo‘lgan Gunjeli karvonsaroyi, Yangilik xabar berish minoralari va erta ko‘chmanchilarga oid qo‘rg‘onlar aniqlandi[33]. Rossiya va Qozog‘iston olimlari bilan hamkorlikdagi xalqaro ekspeditsiyalar esa Gunjeli-2 yodgorligining so‘nggi sarmatlar davriga daxldorligini ilmiy asosladi[34].

Umuman olganda, birinchi bobda to‘plangan nazariy va faktologik materiallar dissertatsiyaning keyingi boblarida Ustyurt yodgorliklarining me’moriy-tipologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **«Janubi-Sharqiy Ustyurt hududi tarixiy yodgorliklarining rivojlanish bosqichlari va o‘rta asr savdo tizimidagi ahamiyati»** deb nomlangan ikkinchi bobida Janubi-Sharqiy Ustyurt hududida tarixiy yodgorliklarning shakllanish bosqichlari, mintaqaning o‘rta asrlardagi xalqaro savdo magistrallari tizimidagi o‘rni, iqtisodiy va siyosiy omillarning infratuzilma rivojiga ta’siri hamda yodgorliklarning davriy tasnifi tahlil etilgan.

Bobning birinchi fasli *“IX–XIV asrlardagi Janubi-Sharqiy Ustyurt o‘lkasining etnik-siyosiy dinamikasi va qabilaviy tuzilmasi”* deb nomlanadi. IX–XIV asrlarda Janubi-Sharqiy Ustyurt Orol-Kaspiy mintaqasining eng muhim etnik-siyosiy hududlaridan biri bo‘lib, bu yerda o‘g‘uz, qipchoq va keyinchalik mo‘g‘ul-mang‘it qatlamlarining almashuvi kuzatiladi. Dastlab IX–XI asrlarda Ustyurt va Sirdaryoning quyi oqimida o‘g‘uz qabilalari yetakchi kuchga aylanib, Yabg‘u davlati shakllandi. Yozma manbalarda ular ko‘proq ko‘chmanchi xalq sifatida tasvirlansa-da, arxeologik va tarixiy ma’lumotlar o‘g‘uzlarning bir qismi yarim o‘troq hayot kechirib, savdo, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan ham shug‘ullanganini ko‘rsatadi. Ularning Xorazm bilan aloqalari savdo, qishlov va siyosiy ittifoqlar bilan birga ayrim harbiy to‘qnashuvlarni ham o‘z ichiga olgan. Beleuli karvonsaroyi atrofidan topilgan tamg‘alar o‘g‘uz qabilalarining savdo yo‘llari va iqtisodiy infratuzilmadagi ishtirokini tasdiqlaydi.

XI–XIII asrlarda Ustyurtda o‘g‘uzlarning mavqei zaiflashib, qipchoqlar mintaqaning asosiy siyosiy kuchiga aylandi. Ular Orolbo‘yi, Mang‘ishloq va Ustyurtga kirib kelib, o‘g‘uzlarning bir qismini janubga va g‘arbga siqib chiqardi. Bu davr tarixda “o‘g‘uz-qipchoq davri” sifatida namoyon bo‘lib, Xorazmshohlar davlatining dasht siyosati bilan chambarchas bog‘liq kechdi. Ayniqsa Otsiz, El Arslon va Takash davrida Xorazmshohlar qipchoqlar bilan murakkab harbiy-diplomatik munosabatlar olib bordi: bir tomondan ularga qarshi kurashildi, ikkinchi tomondan qipchoq urug‘lari davlat harbiy xizmatiga keng jalb qilindi.

О.Ш., Юсупов О.Ж. Кдырниязов М.Ш. Белеули карвонсаройи (тадқиқотлар ва экологик аҳволи). – Вестник ККГУ, 2017, №2. – с. 70-82; Кдырниязов М.Ш., Сайпов С.Т., Алимбетов А.К., Кдырниязов О.Ш. Городище Пулжай. – Вестник ККГУ, 2015, №1. – с. 84-89; Кдырниязов М.Ш., Кдырниязов О.Ш. Средневековый Хорезм и цивилизвция Арало-Каспийского региона. – Вестник ККГУ, 2012, №1-2. – с. 59-61 ҳәм т.б.

[33] Амиров Ш., Ходжалепесов И. Археологические разведки на Восточном чинке Устюрта // Вестник ККО АН РУз, 2016. № 4. – с. 140-146.

[34] Китов Е.П., Болелов С.Б., Балахванцев А.С. Возвращение в Древний Хорезм: исследования совместной российско-каракалпакской экспедиции на Устюрте и Большом Кырк-Кызе. // ВОСТОК (ORIENS) 2019 № 6. DOI: 10.31857/S086919080007730-0

Natijada qipchoqlar Xorazm qo‘shinining muhim tayanchiga aylandi, biroq ularning siyosiy ta’siri ham kuchaydi.

XIII asr boshidagi mo‘g‘ullar istilosi Ustyurt tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Hudud Jo‘ji ulusi, keyinchalik Oltin O‘rda tarkibiga kirdi. Biroq bu jarayon mahalliy etnik tarkibni keskin o‘zgartirmadi: qipchoq va o‘g‘uz-turkman qatlamlari til hamda madaniyatda ustuvor bo‘lib qoldi. Mang‘itlar aynan shu davrda mintaqa tarixida kuchaya boshladi. Ular tez orada Dashti Qipchoqning turkiy muhitiga singib ketib, keyinchalik no‘g‘ay, o‘zbek va boshqa turkiy xalqlar tarkibida muhim o‘rin egalladi.

Shunday qilib, IX–XIV asrlarda Janubi-Sharqiy Ustyurtning etnik-siyosiy manzarasi ko‘chmanchi va o‘troq tsivilizatsiyalar o‘zaro ta’siri, qabilalar migratsiyasi, Xorazm bilan siyosiy aloqalar va mo‘g‘ul istilosidan keyingi transformatsiyalar natijasida shakllangan murakkab tarixiy jarayonni aks ettiradi.

Mazkur bobning ikkinchi fasli *«Ustyurt hududida tarixiy yodgorliklar paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari»* deb nomlanadi.

V-VIII asrlar davomida ma’lum darajada inqirozga uchragan Xorazm vohasi, IX asrga kelib qaytadan iqtisodiy taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ydi. Bu jarayon VII asrda Arab xalifaligining vujudga kelishi va qisqa muddat ichida ulkan imperiyaga aylanishi natijasida mintaqaviy savdo aloqalarining jonlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Xalifalikning chekka hududi hisoblangan Xorazm vohasida shaharlar soni ko‘paydi, bu esa ularning jahon savdo tizimiga integratsiyalashuv imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijada X asrdan boshlab Xorazm Yaqin va O‘rta Sharq, Eron hamda Iroq davlatlari bilan faol savdo-sotiq aloqalariga kirishdi.

VIII-X asrlarda Quyi Volga va Shimoli-G‘arbiy Kaspiy sohillarida Xazar xoqonligining shakllanishi mintaqaviy geosiyosatda muhim burilish yasadi. Xoqonlikning Samandar va Itil kabi siyosiy-ma’muriy markazlari Yevroosiyoning asosiy tranzit yo‘laklari – «Dasht yo‘li» va «Ipak yo‘li» kesishgan nuqtalarda joylashgani bois katta strategik ahamiyat kasb etgan. Bunday geografik qulaylik Xazar davlatiga tranzit savdo orqali boj yig‘ish, savdo yo‘nalishlarini nazorat qilish hamda shimoliy va janubiy hududlar o‘rtasidagi tovar-valyuta oqimlarini shakllantirish imkonini berdi. Xazarlar orqali Sharqdan keluvchi mahsulotlar G‘arbga yo‘naltirildi, bu esa transkontinental aloqalarning yangi tarmoqlarini vujudga keltirdi. Iqtisodiy tahlillarga ko‘ra, Xazariya orqali o‘tgan yo‘llar mintaqada musulmon dirhamlarining hukmronligini va pul-kredit munosabatlarining barqarorlashuvini ta’minlagan.

Xorazmning savdo markazlari nafaqat tashqi bozor, balki atrofdagi keng sahro hududlari – Ustyurt, Qoraqum va Qizilqum o‘lkalari bilan ham uzluksiz iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘ygan edi. Bu aloqalar mahalliy aholining hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan. Ustyurt platosi orqali o‘tuvchi tranzit yo‘llari Xorazmni Quyi Volgabo‘yi va Sharqiy Yevropa bilan bog‘lovchi tizimning markaziy halqasiga aylandi. Poytaxt Urganch va boshqa savdo-xo‘jalik markazlari hunarmandchilik, pul iqtisodiyoti va xalqaro karvon savdosi asosida yuksalib, davlatning iqtisodiy qudratini mustahkamladi.

Xorazm shaharlarining rivoji uning uzoq mamlakatlar – Xitoy, Eron, Hindiston va Rus hududlari bilan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarini yanada kuchaytirdi. Ipak yo‘lining ushbu tarmog‘ida yangi rabotlar va bog‘lovchi punktlarning barpo etilishi tovar aylanmasini sezilarli darajada oshirdi. Biroq, Ipak yo‘li faqatgina geografik jihatdan qulay va iqtisodiyoti rivojlangan shaharlar bilan bevosita tutashgan edi. X asrning oxiriga kelib, Xorazm amiri al-Ma’mun ibn Muhammad musulmon olami chegaralarini Xazariya hududlarigacha kengaytirishga intildi[35].

IX asrdan boshlab Idilbo‘yi va Volga bulg‘orlari bilan savdo aloqalari Xorazm iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyat kasb eta boshladi. Ibn Fadlanning ma’lumotlariga ko‘ra, nafaqat Itilda, balki Bulg‘or shahrida ham xorazmliklardan iborat yirik jamoalar istiqomat qilgan. Bulg‘or bozorlarida O‘rta Osiyodan keltirilgan kumush dirhamlar asosiy to‘lov vositasi bo‘lib xizmat qilgan[36].

Xazar xoqonligining harbiy qudrati asosini Xorazmdan ko‘chib borgan 7 ming otliqdan iborat musulmon «al-arsiya» qo‘shini tashkil etgan[37]. Ular xoqonlikning eng ishonchli harbiy qismi bo‘lib, hatto 912-913 yillardagi rus yurishlariga qarshi kurashda hal qiluvchi rol o‘ynaganlar. Beruniyning ma’lumotlariga ko‘ra, bu alan va as urug‘larining tili xorazmiy va qipchoq tillarining qorishmasidan iborat bo‘lgan[38]. Bu fakt Xorazmning tashqi migratsiya va siyosiy ta’sir doirasi naqadar keng bo‘lganidan dalolat beradi.

O‘rta asrlarda Ustyurtda, asosan, turkiy ko‘chmanchi qabilalar – pecheneglar va o‘g‘uzlar istiqomat qilgan. Ular Xorazm bilan zich iqtisodiy aloqalar o‘rnatib, Urganch bozorlariga chorva mollari, jun va teri olib kelgan, evaziga esa sholi, non, mato va metall buyumlar sotib olganlar[39]. Ibn Fadlan kabi o‘rta asrlik mualliflar o‘g‘uzlarni faqat ko‘chmanchi sifatida ta’riflasa-da, arxeologik izlanishlar ularning infratuzilma qurilishlarida va o‘troq hayot tarzida ham ishtirok etganliklarini isbotlaydi. Bunga Beleuli karvonsaroyi atrofidagi Igdir qabilasi tamg‘alari[40] misol bo‘la oladi.

Bulg‘or va Xazar davlatlaridan Xorazmga, asosan, o‘sha davrda Sharqda g‘oyat qadrlangan turli terilar, asal, mum va qullar keltirilgan. Beruniyning qayd etishicha, bulg‘orlar Xorazmga hatto Shimoliy dengizdan morj tishlarini ham olib kelganlar[41]. O‘z navbatida, Xorazmdan Volga bo‘yiga guruch, quruq mevalar (o‘rik, kishmish, yong‘oq) va Xalijon (hozirgi Oybo‘yir va Sudochye ko‘llari)

[35] Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: ФАН, 1964. – 258 б.
[36] История народов Узбекистана. Т.1. – Ташкент: Изд-во АНУзССР, 1950. – с. 231.
[37] Бубенок О.Б., Радивилов Д.А. Народ ал-арсийа в Хазарии (из истории хазаро-хорезмских связей) / «Хазарский альманах», том 2., 2004. – с. 5-18.
[38] Досимов З., Эгамов Х. Жер атамаларының қысқаша түсиндирме сөзлиги. – Нөкис: Билим, 1991. – 38-39-бб. (184)
[39] Якубовский А.Ю. Феодалное общество Средней Азии и его торговля с Восточной Европой в X-XV вв. - Л., 1933. – с. 15.
[40] Ажигали С.Е. Архитектура кочевников – феномен истории и культуры Евразии (памятники Арало-Каспийского региона). – Алматы: «Ғылым», 2002. – с. 92
[41] Абу-р-Райҳан Мухаммед ибн Ахмед ал-Бируни. Собрание сведений для познания драгоценностей (Минералогия) / пер. с араб. А. М. Беленицкого; под ред. Г. Г. Леммлейна, Х. К. Баранова и А. А. Долининой. — Л.: Издательство Академии наук СССР, 1963. — С. 195, 198.

baliqlari etkazib berilgan. Tarixiy manbalarga koʻra, Xorazmdan eksport va import qilinadigan mahsulotlar turi 40 dan ortiq boʻlgan[42].

Savdo yoʻllarida Gurganj (Urganch) bilan bir qatorda Ustyurt qismidagi Shemaxaqal'a, Puljoy (Git), Bugʻroxon (Madminiya) kabi shaharlar muhim rol oʻynagan. Ayniqsa, Puljoy (Git) shahri bilan bogʻliq afsonalar mintaqaning iqtisodiy farovonligini oʻzida aks ettiradi. «Jezkempir» yoki «Tengeshashqan» rivoyatlaridagi Jezbiyke obrazi – dushman kelayotganda oʻz boyliklarini xavfsiz saqlash maqsadida dashtga sochib yuborishi – bu hududlarning qadimdan boy boʻlganini va oʻziga xos himoya mexanizmlari mavjudligini koʻrsatadi. Bu obraz tarixdagi Turkon Xotun kabi qudratli ayollarning xalq xotirasidagi ramziy koʻrinishi sifatida ham talqin qilinadi.

XI asrdan boshlab siyosiy sahnaga qipchoqlar chiqdi. Ular oʻgʻuzlarni siqib chiqarib, Orol-Kaspiy hududida oʻz hukmronligini oʻrnatdilar[43]. Bu jarayon Xorazmshohlarni shimoliy chegaralarni mustahkamlashga majbur etdi. Ustyurt chinklarida strategik ahamiyatga ega boʻlgan qoʻrgʻon va qal'alar barpo etildi. Ushbu istehkomlar nafaqat harbiy obyekt, balki savdo yoʻllarini nazorat qilish va koʻchmanchi qabilalarni boshqarish markazi boʻlib xizmat qilgan.

1221 yildagi moʻgʻullar bosqini Ustyurtdagi qal'alar va sugʻorish tizimlariga katta zarar etkazdi. Moʻgʻullar Urganchni egallash uchun toʻgʻonlarni buzib yuborib, shaharni suvga gʻarq qilganlar[44]. Biroq, XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Oltin Oʻrda tarkibida Xorazm qayta gulladi. Italiyalik savdogar Franchesko Pegolottining (1342 y.) yozishicha, Yevropada ipak matolari «Organinum» (Urganch ipagi) nomi bilan mashhur boʻlgan va savdogarlarga Xitoyga safar qilishdan avval Urganchda tovarlarini kumushga almashtirish tavsiya etilgan[45].

Oʻrta asrlarda Xorazmning qudrati ikki ustunga tayangan: Amudaryo va Sirdaryo del'tasidagi dehqonchilik madaniyati hamda Ustyurt orqali oʻtuvchi tranzit yoʻllari. Amudaryo yoʻnalishi oʻzgarib, suv Sariqamishga qarab oqqan davrlarda (XIII-XVI asrlar) Daryolik vohasida Vazir, Adoq kabi yangi shaharlar vujudga kelgan[46].

Ikkinchi bobning uchinchi fasli *«Oʻrta asrlar savdo tizimida Ustyurt hududining ahamiyati»* deb nomlanadi.

Orol va Kaspiy dengizlari oraligʻida joylashgan Ustyurt platosi oʻrta asrlar davomida Xorazm, Samarqand va Buxoro kabi yirik iqtisodiy markazlarni Quyi Volga hamda Kavkazorti hududlari bilan bogʻlovchi karvon yoʻllari chorrahasida joylashgan. Bu geografik mavqe platoni Sharq va Gʻarb tsivilizatsiyalari

[42] Кдырниязов О-Ш. Хоразм воҳаси урбанистик цивилизация тарихи (Илк ўрта аср). – Нукус, 2015.
[43] Ахинжанов С.М. Об этническом составе кыпчаков средневекового Казахстана // Прошлое Казахстана по археологическим источникам. – Алма-Ата, 1976. – с. 85.
[44] Жабборов И. Буюк Хоразмшоҳлар давлати (Қадимий тарих саҳифалари). – Тошкент: «Шарқ», 1999. – 140-141-б.
[45] Pegolotti F.B. La Pratica della Mercatura: Book of Descriptions of Countries and of Measures of Merchandise. Ed. By A.Ewans. – Cambridge-Massachusets, 1936. – p. 26; Гузейров Р.А. Товарно-денежные отношения и караванные пути Хаджитархана в XII-XIV веках. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tovarno-denezhnye-otnosheniya-i-karavannye-puti-hadzhitarhana-v-xii-xiv-vekah
[46] Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: ФАН, 1957. – с. 173.

o‘rtasidagi strategik «ko‘prik»ka aylantirgan. Arxeologik qazishmalar va geografik asarlardagi ma’lumotlar Ustyurtning nafaqat tovarlar (ipak, ziravorlar, metallar), balki madaniy obrazlar va ilmiy g‘oyalar almashinuvini ta’minlagan tranzit makon sifatidagi rolini tasdiqlaydi.

Ustyurt hududi orqali o‘tgan savdo tizimining shakllanishi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Yunon geografi Strabon (mil. avv. I asr – mil. I asr) Amudaryoning (Oks) kema qatnovi uchun yaroqliligi va Hindiston mollarini Kaspiy dengizi orqali G‘arbga etkazishda muhim transport arteriyasi bo‘lganini qayd etgan[47]. Ilmiy manbalarga ko‘ra, qadimda Uzboy suv yo‘li faol ishlab turgan bo‘lib, Amudaryo suvi Sariqamish ko‘li orqali Kaspiy dengiziga quyilgan.

Bu suv yo‘lining faolligini Qalaliqir qo‘rg‘onidan topilgan Kavkazga xos buyumlar va Nukus yaqinidagi Besto‘be qoyatoshlaridagi machtali qayiq tasvirlari ham tasdiqlaydi[48]. Ustyurtning Janubi-Sharqiy chekkasidagi Katta Aybo‘yirqal’a, Shemaxaqal’a, Vazir va Adaq kabi yodgorliklar aynan shu qadimiy suv yo‘li bo‘yida joylashgan bo‘lib, u yerda qadimiy istehkomlar ustiga o‘rta asr devorlarining tiklanishi suv yo‘lining uzoq asrlar davomida iqtisodiy ahamiyatini yo‘qotmaganidan dalolat beradi. Qadimiy rimlik Pliniy va xitoylik Shitszi kabi mualliflar ham Amudaryo orqali ham quruqlik, ham suv yo‘li bilan savdo qilinganini ta’kidlaydilar[49]. Uzboy kanali miloddan avvalgi VII–VI asrlardan milodiy IV–V asrlargacha, keyinchalik esa XIII–XVI asrlarda qayta suvga to‘lib, savdo uchun qulay sharoit yaratgan.

Tadqiqotlar Janubiy-sharqiy Ustyurt hududida an’anaviy ravishda ikkita yo‘l bo‘lganini ko‘rsatsa-da, bizning izlanishlarimiz natijasida uchinchi yo‘nalish – «Jand yo‘li» mavjudligi aniqlandi.

1. **«No‘g‘ay yo‘li»:** Bu yo‘nalish Urganchdan chiqib, Oybo‘yir orqali Ustyurtga ko‘tariladi va Beleuli, Churuq, Qushchi kabi karvonsaroylar orqali Saroychiq shahriga (Volga bo‘yi) va Yevropaga yo‘l olgan. S.Tolstov buni «Edilga boradigan katta podsho yo‘li» deb atagan[50]. XIV asr manbalarida qayd etilishicha, bu yo‘lda savdo infratuzilmasi shu qadar rivojlangan ediki, sayohatchilar o‘zlari bilan oziq-ovqat olmasa ham, har 25-30 km oraliqdagi karvonsaroylardan barcha zarur narsalarni topa olganlar[51]. Oltin O‘rda davrida bu inshootlar davlat va boy savdogarlarning jamoaviy mulki sifatida boshqarilgan. Biroq, XVIII asrga kelib, ko‘chmanchilarning talonchiligi sababli Pyotr I bu yo‘lni Kaspiy dengizi orqali o‘tkazishga qaror qilgan[52].

---

[47] Алимова Д., Ртveладзе Э., Абдурасулов У. Средняя Азия – Закавказье – Рим: о значении водного пути по Амударье через Каспийское море в Закавказье // «Дорога Страбона» как часть Великого Шелкового пути. Материалы международной конференции. Баку, 2008. – с. 12.

[48] Vainbrerg B.U. The Kalali-Gir. Ritual Center in Ancient Kharazm // Bulletin of the Asia Institute. New series IV. 8. 1994. P. 67-81; Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.-Л.: Изд-во АНСССР, 1948. – с. 125.

[49] Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – М.-Л.:Изд-ва АНСССР, 1950. – с. 226-227.

[50] Үстірт керуен жолындағы Сам қаласы. URL: https://martebe.kz/stirt-keruen-zholynda-y-sam-alasy/?ysclid=lusvvel3r983729908

[51] Иванин М.И. Хива и река Аму-Дарья. — Санкт-Петербург, 1864. — 14, с. 159-174

[52] Исторические очерки русской торговли с Средней Азии // Московская Университетская Известия, №. 5-, 1869 г. - с. 31.

2. **«Mang‘ishloq yo‘li» (Xiva trakti):** Urganchdan chiqib, Shemaxaqal’a (Zamjon) va Vazir orqali Kaspiy dengizi qirg‘oqlariga (Hoji-Tarxon, Boku) olib borgan[53]. Shemaxaqal’a XII–XV asrlarda Xorazmning yirik savdo-hunarmandchilik markazi bo‘lib, u yerdan topilgan Xitoy seladoni va Oltin O‘rda tangalari shaharning xalqaro aloqalarini isbotlaydi[54]. Bu yo‘l keyinchalik musulmonlarning Haj ziyoratiga boradigan asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

3. **«Jand yo‘li»:** Orol dengizining g‘arbiy qirg‘og‘i va Ustyurtning sharqiy jarliklari bo‘ylab Urganchdan Yangikent (Jankent) va Jand shaharlariga olib borgan. VI asrda Vizantiya elchisi Zemarx Turk xoqonligidan qaytishda aynan shu yo‘ldan foydalangan bo‘lishi mumkin[55]. Orolbo‘yidan topilgan Vizantiya oltin tangalari (Tiberiy Apsimara davriga oid) ushbu yo‘nalishning VI-VII asrlardayoq xalqaro miqyosda e’tirof etilganini tasdiqlaydi.

IX-X asrlarda poytaxti Yangikent bo‘lgan O‘g‘uz davlatining shakllanishi Ustyurtning sharqiy qismida shahar madaniyatining yuksalishiga sabab bo‘ldi. Al-Idrisiy va Mahmud Qoshg‘ariy ma’lumotlari o‘g‘uzlarning faqat ko‘chmanchi emas, balki dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan o‘troq shaharlarga ham ega bo‘lganini ko‘rsatadi[56]. Arxeologik ekspeditsiyalar Janadaryo bo‘yidagi Keskenkuyukqal’a va Sirlitomqal’a kabi yodgorliklarni o‘rganib, ularning Xorazm me’morligi ta’sirida barpo etilganini aniqladi[57]. Xorazmlik ustalar va savdogarlar Ustyurt orqali o‘tgan tranzit yo‘llar atrofida yangi irrigatsiya tizimlari va shahar muhitini shakllantirib, ko‘chmanchi qabilalarning o‘troqlashuviga turtki berganlar.

Ustyurtning sharqiy yoqasi bo‘ylab qurilgan minoralar uzoq vaqt davomida faqat harbiy maqsadda deb hisoblangan. Biroq, yangi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu minoralar savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlash va navigatsiya vazifasini ham bajargan. Ular Amudaryoning qo‘shimcha irmoqlari bo‘ylab kemalarga yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq bo‘lib xizmat qilgan, shuningdek, karvonlar uchun baland chinklarda yo‘nalish belgisi bo‘lgan. XI-XII asrlarda Dasht-i Qipchoq orqali o‘tgan karvonlar sonining ortishi Xorazmshohlarni (ayniqsa Sulton Takashni) Jand shahri va unga boruvchi yo‘llarni qattiq muhofaza qilish haqida maxsus farmonlar chiqarishga undagan[58].

Mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng inqirozga uchragan savdo tizimi XIV asrda Oltin O‘rda (O‘zbek xon davri) va keyinchalik Amir Temur hukmronligi davrida qayta tiklandi. Amir Temur karvon yo‘llarini qo‘riqlash va hunarmandlarga sharoit yaratish haqida tuzuklar chiqarib, madaniy yuksalishga zamin yaratdi[59]. Ushbu

---

[53] Дневник Ибн Фадлана: «Когда они утром встали, верблюды были мертвы от силы холода» URL: https://milliard.tatar/news/dnevnik-ibn-fadlana-kogda-oni-utrom-vstali-verblyudy-byli-mertvy-ot-sily-xoloda-1386

[54] Қдирниязов М.-Ш. Алтын Орда ҳәм Түслик Арал бойы мәденияты. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1995. – 69-б.

[55] Иерусалимская А.А. О северокавказском «Шелковом пути» в раннем средневековье // СА. – М., 1977. №2.

[56] Аль-Идриси. Нозхат аль-муштак фи-ихтирак аль-афак // МИТТ. Т.1. - М. - Л.: Наука, 1939. - С.220.

[57] Очерк истории Каракалпакской АССР. С древних времен до 1917 г. / В 2-х томах. Т.И. [Под ред. С. П. Толстова и др.]. - Ташкент: Наука, 1964. - 429 с.

[58] Буниядов З. Государство Ануштагин-хорезмшахов (1097-1235 гг. н.э.) - Т.: Издательство “Литература и искусство”, 1997. – с. 62.

[59] Темур тузуклари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – 54-б.

davrda Orol dengizining suv sathi pasayishi natijasida dengizning qurigan tubi orqali o‘tuvchi «Tuya yo‘li» yoki «Karvon yo‘li» paydo bo‘lgan. Xorazmdan chiqqan karvonlar dengiz tubi orqali to‘g‘ri Oqbuloqqa va undan Ustyurtga ko‘tarilganlar. 2000-yillarda topilgan Orol-asar manzilgohi aynan shu dengiz tubidagi savdo yo‘li ustida qurilgan karvonsaroy bo‘lgan[60].

Shu tariqa Janubi-Sharqiy Ustyurt Xorazmni global iqtisodiy tizim bilan bog‘lovchi transkontinental suv va quruqlik yo‘llarining strategik tuguni sifatida, hududdagi tarixiy yodgorliklar o‘troq va ko‘chmanchi tsivilizatsiyalar integratsiyasini ta’minlovchi fundamental infratuzilma vazifasini bajargan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **«Janubi-Sharqiy Ustyurtdagi tarixiy-madaniy yodgorliklar»** deb nomlanadi. Mazkur bobda Janubi-Sharqiy Ustyurt hududidagi qal’alar, xabar berish minoralari va karvonsaroylar tavsifi beriladi.

Mazkur bobning *«Janubi-Sharqiy Ustyurt hududidagi qal’alar»* qismida Janubi-Sharqiy Ustyurt hududidagi o‘rta asr qal’a-qo‘rg‘onlarining tarixiy-genezisi, me’moriy tuzilishi va ularning Buyuk Ipak yo‘li tizimidagi geostrategik ahamiyati kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mintaqadagi yodgorliklar Xorazm vohasini shimoliy va g‘arbiy o‘lkalar bilan bog‘lovchi nafaqat savdo tugunlari, balki murakkab mudofaa va ma’muriy boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo‘lgan.

Bug‘roxon yodgorligi (IX–XIV asrlar) – Qo‘ng‘irot shahridan 10 km masofada joylashgan, 60 gektardan ortiq maydonni egallagan eng yirik shahar qoldig‘idir. Shaharning ark, shahriston va rabotdan iborat tuzilishi uning vohaning shimoliy chegarasidagi markaziy shahar bo‘lganini tasdiqlaydi. Tarixiy manbalarda «Madiminiya» va «Barategin» nomlari bilan zikr etilgan ushbu shahar Xorazmshohlar davrida (XII asr) Abulmuzaffar Tamg‘ash Bug‘roxon Ibrohim hokimligi ostida muhim ma’naviy-ma’rifiy markazga aylangan. Shaharda islom me’morchiligi an’analari, xususan, masjid va maqbaralardagi arab epigrafikasi elementlari ijtimoiy hayotda diniy omilning kuchli bo‘lganini ko‘rsatadi[61].

Puljoy arxeologik majmuasi (IX–XIV asrlar) – Ustyurt chinkining sharqida joylashgan bo‘lib, Xorazmning o‘troq dehqonlari va Dasht-i Qipchoq ko‘chmanchilari o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani ta’minlovchi «almashinuv punkti» vazifasini bajargan. Trapetsiya shaklidagi mustahkam qal’a va uning atrofidagi kulolxonalar mintaqaviy hunarmandchilikning yuksak darajasini ifodalaydi. Majmuadan topilgan IX–XIII asrlarga oid mis dirhamlar va Oltin O‘rda davri kulolchilik buyumlari Puljoyning transkontinental savdo yo‘llaridagi doimiy ishtirokini isbotlaydi[62].

Tuproq qal’a qo‘rg‘oni (IX–XIV asrlar) – arab geograflari tilga olgan «Qudjog‘» manzilgohi sifatida aniqlanib, u atrofdagi mustahkamlanmagan qishloqlarni sahro ko‘chmanchilari hujumidan himoya qiluvchi strategik istehkom

[60] Байпаков К.М. Древняя и средневековая урбанизация Казахстана. Книга III. Ч. I. Урбанизация Казахстана в XIII – первой половине XV в. Алматы, 2016. С. 403-404.

[61] Хакимниязов Ж.Х. Бўғрахон минораси // Марказий Осиё маданияти тарихи ва тарихшунослиги масалалари. Тошкент, 2024. – 169-171 бб.

[62] Амиров Ш.Ш. Новые данные к археологической топографии Пулжая // История и археология Турана, №4,2019. – с. 198.; Кдырниязов М-Ш. Археологические работы в Пульжае 2015-2016 гг. // Вестник КГУ, № 2, 2021.

bo‘lgan. Arxeologik qazishmalar qal’a devorlarining chuqur xandaqlar va mustahkam paxsa asos bilan ta’minlanganini ko‘rsatadi. Bu yerdan topilgan sirlangan geometrik naqshli idishlar va Oltin O‘rda tangalari vohaning Volga bo‘yi va rus dashtlari bilan iqtisodiy munosabatlari barqaror bo‘lganini tasdiqlaydi[63].

Devkesken (Vazir) shahri (IX–XVIII asrlar) – Ustyurt platosining baland chinklarida joylashgan bo‘lib, uning tabiiy 30 metrlik jarliklari va mudofaa devorlari shaharni muhim harbiy-siyosiy qarorgohga aylantirgan. Shahar hududidan topilgan Xazar davlatiga tegishli tangalar (IX asr) va Xorazmshohlar (Takash va Alouddin Muhammad) davriga oid tilla xazinalar mintaqadagi iqtisodiy qudrat va savdo aloqalarining miqyosini belgilab beradi. Shuningdek, Oltin O‘rda xonlari Monke va Mangu-Temur davrida zarb etilgan tangalar shaharning XIII asr ikkinchi yarmida Oltin O‘rda iqtisodiy tizimiga to‘liq integratsiyalashganini ko‘rsatadi[64].

Alanqal’a (XII–XIV asrlar) – Borsakelmas botiqligi yaqinida joylashgan kvadrat shaklidagi mustahkam istehkomdir. Uning to‘rtburchak minoralari Xorazmning afrig‘iy-somoniylar davri me’morchiligiga xos bo‘lib, qal’a «Xorazm-Xazar» va «Haj» yo‘lidagi asosiy suv manbaiga ega bo‘lgan to‘xtash joyi bo‘lgan. Shaharning nomi tarixiy alan qabilalari bilan bog‘liq bo‘lib, hududda etnik va madaniy rang-baranglik mavjudligini tasdiqlaydi[65].

Shemaxa qal’a (IX–XVII asrlar) – arab manbalaridagi «Zamjon» raboti bilan bir xil deb qaralib, u «Turklar darvozasi» sifatida tavsiflangan. Shahar o‘zining tsitadeli va shahristoni bilan Xorazmning janubi-g‘arbiy chegaralari xavfsizligini ta’minlashda yetakchi o‘rin tutgan. Topilgan Xitoy seladoni va kobal’t rangli idishlar shaharning xalqaro savdo maqomini belgilaydi[66].

Bundan tashqari, mazkur faslda **Ajiboy**, **Urga**, **Qaraumbet**, **Saksovulsoy**, **Qiyajol**, **Erburun** va **Assakeaudan** kabi qo‘rg‘on va qal’alarning tipololgik tavsifi berilgan. Ushbu yodgorliklarning aksariyati har 25–30 km oraliqda joylashgan xabar berish minoralari bilan yagona strategik tizimni tashkil etgan. Ushbu inshootlar nafaqat harbiy-mudofaa punkti, balki suv ta’minoti (sardoba va quduqlar) hamda hunarmandchilik (kulolchilik, metallsozlik) rivojlangan iqtisodiy markazlar bo‘lgan.

Janubi-Sharqiy Ustyurtdagi o‘rta asr qal’a-qo‘rg‘onlari Xorazm davlatchiligining shimoliy periferiyasidagi siyosiy barqarorlik, xavfsizlik va transkontinental iqtisodiy almashinuvni ta’minlovchi fundamental asos vazifasini bajargan.

---

[63] Туребеков М., Алимбетов А. Қарақалпақ мәмлекетлик университети Қоңырат археологиялық отрядының Топырақ қала естелигин изертлеқ нәтийжелери // ҚМУ «Хабаршысы», 2017, №4. – 58-б.

[64] Материалы к своду памятников истории и культуры Каракалпакской АССР. Вып. 1. – Нукус: Каракалпакстан, 1985. – с. 66-67.; Петров П.Н. Клад из Дев-кескен-кала и вопросы начала чеканки серебряных монет в Джучидском улусе // Золотоордынская цивилизация. Вып. 3. – Казань, 2010. - с. 121-149

[65] Ягодин В.Н. Памятники кочевых племен северо-западной части Барсакельмесской впадины. Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устюрта. – Ташкент, 1978. –с. 104

[66] Зиливинская Э.Д. Караван-сараи в Золотой Орде // Золотоордынская цивилизация. 2017. № 10. С. 168–187.; Вактурская Н. Н. "О раскопках 1948 г. на средневековом городище Шемахакала Туркменской ССР" // Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945–1948 гг. — М.: Издательство Академии наук СССР, 1952. Т. I. С. 175–176.;

Uchinchi bobning *“Xabar berish minoralari” hamda “karvonsaroylar”* deb nomlangan fasllarida Janubi-Sharqiy Ustyurt hududidagi o‘rta asr kommunikatsiya, xavfsizlik va logistika tizimining fundamental asoslari bo‘lgan xabar berish minoralari hamda karvonsaroylarning tarixiy-me’moriy xususiyatlari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu inshootlar nafaqat Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘ida navigatsiya vazifasini bajargan, balki Xorazm davlatining strategik mudofaa va iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi yaxlit infratuzilma tizimini tashkil etgan.

Xorazm davlatchiligida IX–XIII asrlarda barpo etilgan xabar berish minoralari o‘sha davrning yuksak muhandislik va harbiy-strategik salohiyatini namoyish etadi[67]. Bu minoralar, asosan, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab, Ustyurtning sharqiy chinklarigacha bo‘lgan masofada, aholi punktlariga yaqin strategik balandliklarda joylashgan. IX-XIII asrlarda Amudaryoning asosiy irmog‘i bo‘lgan Daryolik kanali Ustyurtning sharqiy chinki yoqalab oqqanligi sababli, bu yerdagi minoralar suv kemalari uchun yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq (navigatsiya) vazifasini ham bajargan[68]. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, minoralar odatda 8–10 km oraliqda (vizual ko‘rinish masofasida) qurilgan bo‘lib, olov va tutun yordamida tezkor xabar uzatish tizimi yo‘lga qo‘yilgan[69].

Mazkur qismda Ustyurt hududidagi quyidagi muhim minoralar batafsil tavsiflangan:

Janaliq va Qasqajol minoralari (IX–XI asrlar) – Ustyurt tekisligidagi dastlabki qo‘riqlash punktlari bo‘lib, ulardan topilgan sopol parchalari ushbu inshootlarning ilk o‘rta asrlardagi faol kommunikatsiya vazifasini tasdiqlaydi[70].

Oybo‘yir xabar berish minorasi (IX–XI asrlar) – kesik konus shaklidagi noyob me’moriy inshoot bo‘lib, asosining diametri 9 metrga etadi. Minoraning yuqori qismi pishgan g‘ishtdan qurilganligi va uning Katta Oybo‘yir qal’asi bilan funktsional bog‘liqligi mintaqaviy mudofaa tizimining muhim halqasi ekanini ko‘rsatadi.

Qazaqlidegish va Qalaliq minoralari – IX–XIII asrlarga oid bo‘lib, ularning poydevori kvadrat shaklida mahalliy chig‘anoqtosh plitalardan barpo etilgan. Ushbu minoralar Xorazmshohlar davridagi chegara xavfsizligini ta’minlashda yetakchi rol o‘ynagan.

Oqcho‘loq va Berniyoz minoralari (X–XIII asrlar) – Ustyurtning sharqiy chekkasida qad rostlagan bo‘lib, ular Baqqal qal’a karvonsaroyi va boshqa yo‘l bo‘yi inshootlari bilan bog‘langan holda savdo karvonlarining navigatsiyasini ta’minlagan.

---

[67] Манылов Ю. Сигнальные башни Султануиздага // Вестник КО АН РУз. 1969, №3.

[68] Сулайманов С.А., Сапаров Н.Ж. О судоходстве по реке Амударья и его руслах // Материалы Международного симпозиума ―Приаралья на перекрестке культур, посвященного 100-летию со дня рождения С.П.Толстова. –Нукус: 2007. – с. 81-82.

[69] Средневековые Хорезмийские памятники Восточного чинка // Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устюрта. – Ташкент: ФАН, 1978. – с. 199.

[70] Материалы к своду памятников истории и культуры Каракалпакской АССР. Вып. 1. – Нукус: Каракалпакстан, 1985. – с. 57-58.; Древняя и средневековая культура юго-восточного Устюрта. – Ташкент: Фан, 1978. – с. 109.

Urga va Qaraumbet minoralari – to‘rt qirrali piramida shaklida qurilgan bo‘lib, ular nafaqat quruqlikdagi yo‘llarni, balki Orol dengizi qirg‘oqlaridagi harakatlarni ham nazorat qilish imkonini bergan.

Ustyurtdagi karvonsaroylar (XII–XIV asrlar) xalqaro tranzit savdoning asosiy tayanch punktlari hisoblanadi. S.P. Tolstov va Yu.P. Manilov tadqiqotlariga ko‘ra, ushbu maskanlarning eng yuksak rivojlanish davri Oltin O‘rda xonlari hukmronligiga to‘g‘ri kelib, ular mukammal mudofaa va xizmat ko‘rsatish tizimiga ega bo‘lgan[71].

Ajigeldi-buloq karvonsaroyi (XIV asr) – 18 ta xona va markaziy hovlidan iborat bo‘lib, u yerdan topilgan XIV asr o‘rtalariga oid mis tangalar va hunarmandchilik buyumlari karvonsaroyning yuqori iqtisodiy faolligini ko‘rsatadi.

Beleuli karvonsaroyi (XIV asr) – Ustyurtdagi eng mashhur me’moriy obidalardan biri bo‘lib, uning peshtoqidagi sher tasvirlari (Registon an’analari bilan bog‘liq) va devorlaridagi turli tillardagi (jumladan, lotincha) paleografik yozuvlar ushbu maskanning xalqaro savdo va madaniy almashinuvdagi yuksak maqomidan dalolat beradi[72]. Hozirda ushbu hudud UNESCOning Butunjahon tabiiy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Qo‘shbuloq va Churuq karvonsaroylari (XI–XIV asrlar) – qalin mudofaa devorlari va doiraviy minoralari bilan ajralib turadi. Bu yerdagi sardoba va quduqlar tizimi sahro sharoitida ulkan karvonlarning suv ta’minotini kafolatlagan.

Qulonli majmuasi – karvonsaroy va minorani o‘z ichiga olib, u yerdan topilgan arab yozuvidagi lavha Xorazmning islom dunyosi bilan madaniy aloqalarini yaqqol aks ettiradi.

Ustyurtdagi xabar berish minoralari va karvonsaroylar tizimi o‘rta asrlarda Xorazm davlatchiligining yuksak muhandislik va tashkilotchilik salohiyatini namoyon etadi. Ushbu inshootlar mudofaa va navigatsiya funktsiyalarini mujassamlashtirgan holda, transkontinental savdo yo‘llarining xavfsizligini va mintaqalararo madaniy-iqtisodiy aloqalarning izchilligini ta’minlovchi strategik infratuzilma bo‘lib xizmat qilgan.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, Janubi-Sharqiy Ustyurtdagi qal’alar, xabar berish minoralari va karvonsaroylar tizimi o‘rta asrlarda Xorazm davlatchiligining yuksak muhandislik va tashkilotchilik salohiyatini namoyish etadi. Ushbu inshootlar mudofaa va navigatsiya funktsiyalarini mujassamlashtirgan holda, transkontinental savdo yo‘llari xavfsizligini va mintaqalararo madaniy-iqtisodiy aloqalar izchilligini ta’minlovchi strategik infratuzilma bo‘lib xizmat qilgan hamda Xorazmning shimoliy periferiyasidagi siyosiy barqarorlikni kafolatlagan.

Ishning to‘rtinchi bobi **«Ko‘chmanchi tsivilizatsiyaning moddiy ifodalari: Ustyurtdagi xo‘jalik va diniy me’moriy yodgorliklar»** deb ataladi. Mazkur bobning *«Ustyurt platosidagi statsionar ov inshootlari (aran, bog‘lama, boteke):*

[71] Манылов Ю.П. Археологические исследования караван-сараев Центрального Устюрта // Археология Приаралья. Вып. 1. -Ташкент, 1982. – с. 93

[72] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 4 октябрдаги "Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида"ги 846-сонли қарори. URL: https://lex.uz/ru/docs/4543266; Аржанцева И.А. Хорезм. История открытий и исследований. Этнографический альбом. - Ульяновск: "Артишок", 2016. – с. 122.

arxeologik, etimologik va madaniy tahlil» mavzusiga bag‘ishlangan qismida Yevroosiyo miqyosida o‘xshashi kam uchraydigan noyob arxeologik va tarixiy-madaniy fenomen – Ustyurt platosidagi statsionar ov inshootlarining tarixiy mohiyati, tipik xususiyatlari va mintaqa ko‘chmanchilari hayotidagi o‘rni majmuaviy tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu inshootlar nafaqat xo‘jalik faoliyati vositasi, balki qadimgi ko‘chmanchilarning tabiat bilan uyg‘un fazoviy fikrlash madaniyati va ijtimoiy tuzilmasining moddiy ifodasi hisoblanadi.

Ustyurtdagi ov inshootlari ilk bor 1952 yilda S.P. Tolstov tomonidan Erburunqal’a yaqinida aniqlangan va ularning ov qilishga mo‘ljallanganligi haqida dastlabki ilmiy gipoteza ilgari surilgan[73]. Keyinchalik, 1972 yildan boshlab V.N. Yagodin rahbarligida olib borilgan keng ko‘lamli aerofotos’yomkalar va qazishmalar natijasida ushbu obyektlarning Orol qirg‘oqlaridan Kaspiy dengizigacha bo‘lgan hududlarda guruh-guruh bo‘lib joylashgani (Duvona, Oybo‘yir, Chalburun, Yarimquduq kabi) aniqlandi. Olim ushbu «kamon o‘qsimon inshootlar» (strelovidnaya planirovka) aslida sayg‘oq, qulon va jayronlarni ommaviy ovlash uchun mo‘ljallangan «aran»lar ekanligini isbotladi[74].

«Aran» atamasi etimologiyasi bo‘yicha turli ilmiy qarashlar mavjud. Fors tilida «qo‘ltiq», Mahmud Qoshg‘ariy lug‘atida «molxona», V.V. Radlov talqinida esa «yovvoyi hayvonlar yo‘liga qo‘yiladigan to‘siq» ma’nolarini anglatadi[75]. Abulg‘ozi Bahodirxonning «Shajara-i turkomon» asarida ham aranlarning qurilishi va ulardan foydalanish shartlari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan[76]. Qoraqalpoq fol’klori va mumtoz adabiyotida (Berdaqning «Shajara»si, «Qirqqiz» dostoni) aran so‘zi kenglik, kuch va ochiq fazo ramzi sifatida metaforik ifodalar («arandek og‘iz ochish») orqali yashab kelmoqda.

Tadqiqotda Ustyurt ov inshootlari uchta asosiy turga bo‘lingan:

Kamon o‘qsimon aranlar: Tekislikda qurilgan, uzunligi 600–900 metrli devorlar va uchburchak shaklidagi tuzoq (qo‘ra) qismidan iborat bo‘lib, asosan sayg‘oqlarning migratsiya yo‘llarida qo‘llangan.

Bog‘lama: Ikkita tik jarlikni bog‘lovchi devor ko‘rinishida bo‘lib, ovchilar uchun maxsus otish tuynuklari (bastionlar) bilan ta’minlangan. Ular hayvonlarni tanlab ovlash imkonini bergan[77].

Boteke (Buyrak): Inson buyragi shaklidagi kichikroq inshootlar bo‘lib, tepalik va pastlik rel’efidan mahorat bilan foydalanilgan holda barpo etilgan.

Ovchilik faoliyati Ustyurtda tizimli xo‘jalik sifatida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, XIX asr o‘rtalarida birgina sayg‘oq shoxlarining Xitoyga eksporti minglab tonnani

[73] Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949-1953 гг. //ТХАЭЭ. Т. 14. М, 1958. – с. 78.

[74] Ягодин В.Н. Стреловидные планировки Устюрта (опыт историко-культурной интерпретации) // Археология Приаралья. Вып. V. Ташкент: Фан, 1991.

[75] Хожаниязов Ғ., Ҳәкимниязов Ж. Қарақалпақстанның әжайып жети естелиги. – Нөкис, 2004. – 28-б.

[76] АБУ-Л-ГАЗИ. Родословная туркмен. https://pomnirod.ru/materialy-k-statyam/administrativno-territorialnoe-delenie-rossijskoj-imperii/gubernii-rossii/samarkandskaya-oblast/knigi-ocherki-stati-publikacii-o-samarkandskoj-oblasti1/абу-л-гази.-родословная-туркмен.html

[77] Еділхан А.М. , Ешманова Г.Қ. Древние охотничьие сооружения номадов как объект ландшафтного туризма // Yessenov science journal №2 (43)-2022. DOI 10.56525/OPDS2594

tashkil etgan[78]. Shu bilan birga, aranlarning tuzilishi koʻchmanchilarning «ekologik etikasi»dan dalolat beradi – hayvonlarni behuda qirish emas, balki tanlab olish va tabiiy muvozanatni saqlashga intilish asosiy meʼyor boʻlgan.

Soʻnggi tadqiqotlarga koʻra, Ustyurt hududida jami 100 dan ortiq bunday inshootlar qayd etilgan boʻlib, ular asosan IX–XIV asrlarga (oʻgʻuz va turkman-qipchoq davrlari) mansubdir[79]. Xulosa qilib aytganda, Ustyurt ov inshootlari koʻchmanchi tsivilizatsiyaning iqtisodiy, maʼnaviy va simvolik dunyoqarashini ifoda etuvchi benazir madaniy fenomen hisoblanadi.

Toʻrtinchi bobning *«IX–XIV asrlarda Ustyurt platosidagi qoʻrgʻonsimon qabrlar va ularning etnomadaniy tahlili»* deb nomlanuvchi faslida Ustyurt platosidagi oʻrta asr koʻchmanchi aholisining dafn yodgorliklari, ularning konstruktiv xususiyatlari va etnomadaniy atributsiyasi tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Ustyurt yodgorliklari alohida lokal guruh boʻlmay, balki «Janubiy Oʻrol qipchoq davri qoʻrgʻonlarining sharqiy tarmogʻi» deb taʼriflanuvchi keng madaniy tizimning ajralmas qismidir. Arxeologik maʼlumotlar platoni Janubiy Oʻrol, Quyi Volga va Xorazm oʻrtasidagi muhim integratsiya yoʻlagi sifatida namoyon etadi.

Tadqiqotda koʻchmanchilarning platoda faol yashagan ikki asosiy davri ajratib koʻrsatilgan:

IX–XI asrlar (Oʻgʻuz-pecheneg davri): Bu bosqichga Yarimquduq-14, Qasarma va Tayli kabi komplekslar kiritilgan[80]. Ushbu davr qoʻrgʻonlaridagi dafn marosimi (ot qurbonliklari, qurol-aslahalar) Ibn Fadlanning 921–922 yillardagi oʻgʻuzlar haqidagi tasvirlariga toʻliq mos kelishi aniqlandi. Bu esa oʻgʻuz-pecheneg qabilalarining tarqalish hududini Xorazm chegaralarigacha kengaytirish imkonini berdi.

XII–XIV asrlar, yaʼni Qipchoq va Oltin Oʻrda davrida qoʻrgʻonlarning toshdan qurilishi («toshbaqa» tipi) ustuvorlik qilgan. Oltin Oʻrda davriga oid qabrlarda (Berniyoz-1) Xorazmning sirli keramikasi topilgani hududning iqtisodiy integratsiyasini tasdiqlaydi[81]. Oltin Oʻrda davrida oʻgʻuz-pecheneg elementlarining qayta paydo boʻlishi moʻgʻul uluslari ichidagi ikkilamchi migratsiya jarayonlari bilan izohlanadi.

Ustyurtning oʻrmonsiz sharoiti dafn anʼanalariga taʼsir koʻrsatib, anʼanaviy yogʻoch taxtalar va tobutlar oʻrnini mahalliy tosh plitalar va tosh qutilar egallashiga sabab boʻlgan. Bu holat koʻchmanchilar madaniyatida ekologik pragmatizm va anʼanaviylikning uygʻunligini namoyish etadi.

Ustyurtdagi qipchoq qoʻrgʻonlarining yakka holda yoki kichik guruhlarda uchrashi ularning mavsumiy ovchilik-chorvachilik yoʻnalishlarini belgilovchi «muqaddas belgilar» boʻlganidan dalolat beradi. V.N. Yagodin talqinicha, Janubi-

---

[78] Ягодин В.Н. Стреловидные планировки Устюрта (опыт историко-культурной интерпретации). Археология Приаралья. Вып. V. - Ташкент: «Фан», 1991. – с. 181.

[79] Amirov Sh., Betts A. Yagodin V.N. Mapping ancient hunting installations on the Ustyurt Plateau, Uzbekistan and Kazakhstan: New results from Remote Sensing Imagery. URL: https://www.persee.fr/doc/paleo_0153-9345_2015_num_41_1_5662

[80] Древняя и средневековая культура Юго-восточного Устюрта. – Ташкент: Фан, 1978. – с. 138-140.

